

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA**

**FAKULTETI**

**«TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI» KAFEDRASI**

**« Maishiy janrda kompozitsiya bajarish texnologiyasi (m.b)» mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Bajardi:** « Kasb ta'limi

(Tasviriy san'at va muhandislik)»

ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi

4 kurs talabasi **Ramazonova Sarvinoz**

---

**ILMIY RAHBAR:**

Katta o'qituvchi **Sh.R.Ramazonov**

---

**Fakultet dekani:** Psixologiya fanlari doktori

Professor-Barotov SH.R.

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

\_\_\_\_\_ sonli bayonnomasi « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2016yil

**BUXORO – 2016**

## **Mavzu: Maishiy janrda kompozitsiya bajarish texnologiyasi (m.b)**

Reja:

Kirish.....2-4 betlar

### **I BOB.**

1.1. Tasviriy san'atda maishiy janr haqida umumiy ma'lumot.....5-7 betlar

1.2. Maishiy janrda ijod etgan rassomlar.....8-18 betlar

1.3. Maishiy janr ishlashda rang va bo'yoqlardan foydalanish.....19-29 betlar

1.4. Kompozitsiya bajarish texnikasini egallash.....30-35 betlar

### **II BOB.**

2.1. Tasviriy san'atda maishiy janrida kartina bajarish texnologiyasi.....36-37 betlar

2.2. Tabiat va rangtasvirdagi ranglar.....38-42 betlar

2.3. Moy bo'yoqda kartina ishlash texnologiyasi.....43-51 betlar

2.4. Tasviriy san'atfanidan 1 soatlik dars ishlanmasi.....52-55 betlar

**XULOSA.....56-57 betlar**

**ILOVALAR.....58-81 betlar**

**ADABIYOTLAR RO'YXATI.....82-83 betlar**

## Kirish

O'zbek tasviriy san'atida maishiy janr XX asr 20 yillarini ikkinchi yarmidan boshlab rivojlana boshladi. 1926 yili Toshkentda AXRR (Assotsiatsiya xudojnikov revolyusionnoy Rossii)ni filiali tashkil etildi. Assotsiatsiya janrni rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Tashkil etilgan ko'rgazmalardagi ishlar rassomlarda qoniqish hosil qilmadi. Ular hayotda bo'layotgan o'zgarishlar, mehnatkash xalqning tabiatga, erga bo'lgan munosabatini sinchiklab o'rgandilar.

Ko'rgazmalarda O'.Tansiqboev, A. Toshkentbaev, B. Xamdami, L. Abdullaev, A. Roziqovlar qatnashaboshladilar. Yangi nomlar paydo bo'ldi, rassomlarni asarlarini saviyasi o'sib ijodlari rivojlana bordi. Rassomlarni ko'pfiguralli kompozitsiyani tasvir va rang vositalari qiziqtirdi. Shu tariqa 20-30 yillarda O'zbekistonda maishiy janr shakllanib, rivojlandi. Ana shu davrda Samarqandlik rassom L. Bure, o'zining ijodiy va pedagogik faoliyatini boshladi. Uning dastlabki (1928 y) kompozitsiyalari «Tandir quruvchilar», «Buxoroda Nodir Devon-begi havuz suv tashuvchilari» bo'lsa, 1930 yillarda «Maktab qurilishi», «Paxta terimi»dan iborat rasmlar yaratdi. Sxematik chizgi tasvirlarda nuqsonlar mavjud, lekin taxminiy ranglar ifodasi, kartinani hayotiy etib ko'rsatadi.

Rassomlarning keksa avlod vakillaridan biri Aleksandr Volkovdir. Dastlabki ijodiy izlanishlari formalizm yo'lidan qutulib, hayotni realistik tasvir uslubiga qaytgan yillari edi. U ko'p asarlarida inson obrazini, yangi hayotni jozibali ranglarda tasvirlaydi. Uning 24-30 yillarda yaratgan «Choyxonada», «Eski shahar choyxonasi», «Anorli choyxona» shular jumlasidandir. Choyxonada choy ichish, bu inson qalbini yumshatib suhbat qurish, hayot muammolari bilan o'rtoqlashishga yaqin muloqotda bo'lish uchun muhim ma'naviy ehtiyoj makoni. U shuningdek Respublikani yangi qurilish ob'ektlarida bo'lib, «Qurilishda», «Paxta terimida», 1933-1934 yillarda «Brigada majburiyat qabul qilmoqda». «Hosil» triptix, «Sbor ekskavatora», «Chirchikstroy», «Tashselmash» asarini yaratdi. U o'z asarlarida mehnatkash inson hayoti, mehnatini, Respublikada rivojlanayotgan industriya qudratini aks ettirdi.

O'zbek tasviriy san'atining siymolaridan biri «Bahrom Hamdamiy»dir. u 1935 yili Toshkent rassomchilik texnikumini imtiyozli diplom bilan tamomladi. Rassom A. Volkov, M. Kurzin, O'.Tatevosyan kabi ajoyib rassom va pedagoglardan ta'lim oldi. O'sha vaqtda tuzilgan A.Volkov rahbarligidagi ijodiy brigadalardan biriga Bahrom Hamdamiy ham kirgan edi. Brigadada O'. Tansiqboev, N. Qoraxon, A. Подковыров, A.Toshkanboevlar bilan do'stlashib Respublika bo'ylab ijodiy safarda bo'ldi, yig'ilgan materiallar kelajak ijodiga zamin yaratdi. Hayotdagi o'zgarishlar xalqning mehnatdagi muvaffaqiyatlari rassomni ijod qilishga ilhomlantirardi. Har bir kartinani yaratishda sidqidildan muhabbat bilan yondoshardi. 1936-37-38 yillar yaratgan «Choyxonada oqshom», «Sevimli qo'shiq», «Tasvir to'garagi» kabi kartinalarida yuqorida ta'kidlab o'tgan fikrlarga amin bo'lamiz. 1936 yili bir guruh yosh rassomlar qatori Moskva-Leningraddagi Davlat Tretyakov galereyasi, Pushkin nomidagi Davlat Tasviriy san'at muzeyi, Davlat Ermitaji, Rus muzeyida rus va G'arbiy Evropa san'ati durdonalari bilan tanishishga muvofiq bo'ldi. Rassom 1939 yilda «Ish tugaganda» deb atalgan kartinasini yozib tamomladi. Bu asar 1940 yilda Respublika ko'rgazmasiga qo'yildi va mutaxassislar tomonidan o'zining badiiy jihatidan O'zbekiston rassomlarining maishiy mavzuda yaratilgan birinchi va eng yaxshi asar sifatida kutib olindi.

Kartina qahramonlari - O'zbekiston kishilari, xalq qurilishining kamtarin bahodirlari. Oldimizda o'zaro suhbatlashayotgan bir guruh kanal quruvchilari yirik planda gavdalandi. Rassom o'zbek xalqining milliy xususiyatlarini yaxshi bilgan. Shuning uchun kartina kompozitsiyasi tabiiydek bir butun tarkibiy yaxlit, rassomga yaxshi tanish, yosh quruvchilarning oftobda qoraygan, bronzadek qomatlari ham, keksaroq erkakning yashil zangori kiyimlari, abxazcha kigiz qalpoq kiygan ishchining elkasidagi beqasam to'n ham, choshgohdagi kalta soyalar ham-hammasini rassom ishonarli jonli bo'yoqlarda yaxlit va yakka detallarning uyg'unligini his qilib tasvirlay olgan.

1941 yilda «Farxod Xisrav asrligida» kartinasini yozib tamomladi. Bu polotno buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning tug'ilganiga 500 yil to'lishi munosabati bilan

yaratilgan edi. Hamdamiy bu kartinada o'zining o'tkir shoirona tafakkurini iste'dodini, mahoratini namoyish qilgan. Rassomning bu kartinasi o'zbek dastgohli san'atining Navoiy asari mavzuida yaratilgan namuna bo'lib qoladi.

Nadejda Kashinani dastlabki yaratgan «Paxta terimida» asarlari 1930 yillarga to'g'ri keladi. Kashina asosan mehnatkash o'zbek xotin-qizlarini hayotli, mehnati, quvonchi, taqdiri qiziqtiradi. Ular yashab mehnat qilayotgan quyoshli o'lka, inson qo'li bilan yaratilayotgan bunyodkorlik mehnat rassomning asosiy mavzuidir. U yaratgan «Childirma chalayotgan qiz» (1945 y), «Tushki tanaffus» (1949 y), «Zvenoni yutug'i» (1949 y) asarlari nafis, yorqin ranglarda ifoda etilgan, tomoshabinga shodlik va quvonch baxsh etadi. U o'z asarida ayollarni ichki hissiyot va kayfiyatlarini ochib berishga muvaffaq bo'ladi. Uning asarlarini milliy ruh bilan sug'orilgan maishiy janrdagi kompozitsiya namunasi deyish mumkin. Har sohada ijod qilgan ko'pgina rassomlar o'zlarini maishiy janrda sinab ko'rganlar. G. Chernuxinni «Sharqona bozor» (1978 y), «Mehnat romantikasi» (1975 y), «Paxta» (1978 y), «Ko'k choy» (1972 y), V. Kivininni «Xirmonda», «Qurultoy kunlarida» (1969 y), V. Burmanini «Oila», «Oq xalatli kishilar». R. Axmedovni «Qo'shiq» (1964 y), M. Saidovni «Oila», «Askiya» kabi rassomlarning asarlari misol bo'ladi.

## I BOB.

### 1.1. Tasviriy san'atda maishiy janr haqida umumiy ma'lumot

**Maishiy janr-** jamiyat va shaxsiy xayotdagi kundalik turmush tarzini o'zida aks ettiruvchi tasviriy san'at janri. Bu janrda rassom (xaykaltarosh) o'z zamonasidagi kundalik turmushda bo'layotgan voqea va xodisalarni, odamlarning yashash tarzi, dam olishi, mehnati va sport bilan shu yo'llanishi, xullas ularning kundalik faoliyati bu janrning mazmunini tashkil etadi. Insonlarning maishiy xayotini aks ettirishga qiziqish qadimdan mavjud bo'lsa ham lekin uning rivojlanishi va mustaqil janr darajasiga aylanishi 17 asrdan boshlab jamiyatda sodir bo'la boshlagan demokratik tamoyillarni ortishi bilan bog'lik, Shu davrdan boshlab rassomlar ijodida oddiy xalq xayotiga bag'ishlangan asarlar ko'paydi, mavzusi kengaydi. Bu janr Gollandiyada keng rivojlandi. Buyuk Rembrandt, kichik gollandlar Piter de Xoox, Terborx, Yan van Ostade va bosh. ijodida shu janr etakchi o'rinni egalladi. Fransiyada Jan Batist Sharden, Angliyada Uiyam Xogart, Rossiyada P. Fedotov, V. Perov, I. Repin va bosh. ijodida ham shu janr xususiyatlari o'z ifodasini topdi. O'zbek san'atida maishiy janr 20 asrning 20-30 yillaridan boshlab rivojlana boshladi. B. Xamdamiy, L. Abdullaev, X. Raxmonov, Z. Inofofov va boshkalar shu janrning dastlabki namunalarini yaratdilar. N. Kashina, Z. Kovalevskaya, M. Saidov ijodida ham shu janr etakchi o'rinni egallaydi. Bugungi kunda ham bu janr ko'plab ijodkorlarni o'ziga jalb etib kelmoqda.

Tasviriy san'at, Manzara, maishiy, natyurmort, portret, tarixiy animal (Ya'ni hayvonot olamiga oid.) afsonaviy, dengiznafislik, interyer janrlari bor.

Janr rassom nimani tasvirlayotganiga qarab belgilanadi. Masalan asarlarda odam rasmi ishlansa, u portret tabiat va shahar ko'rinishlari tasvirlansa, "Manzara" turmush va mehnat jarayonlari tasvirlansa, Maishiy janrga xos bo'ladi.

Shu o'rinda maishiy janrda asarlar kishilarning maishiy turmush tarzi, mehnat, kundalik hayoti bilan bog'liq bo'lib ularda ko'proq oila, maktab, dam olish, shaxsiy va ijtimoiy hayot jarayonlari aks ettiriladi. Maishiy janrlardagi asarlar nafaqat hozirgi

kun odamlarning balki, o'tmish kishilarning turmush tarsi va hayoti haqida ham keng ma'lumot beradi.

Uning janrlardan biri maishiy janr haqida tushunchaga ega bo'lamiz. Har bir janr o'z o'rniga yana bir qancha janrlarga bo'lishimiz mumkin. Masalan: Manzara janri: Tabiat manzarasi, shahar manzarasi, sanoat binolari ko'rinishi janriga bo'linadi.

Bahor mavzusida eskiz chizishni o'quvchilarga bosqichma bosqich o'rgatish. Shu mavzuda ishlagan rassomlarni aytamiz. Kent Rokulning "Dengiz zahmatkashlari" "Baxor istiroblari"; I. Levitan " "Mart" "Girdob oldida" Rodin "Mangu baxor" I. Snishkin "Bug'doyzor" "Kesilgan o'rmon". Fransua Ogyust "Mangu baxor" asarlari juda mashhur. "Bundan tashqari o'zbek rassomlari manzara janriga juda samarali ijod qilganlar. Masalan; O'rol Tansiqboyev, Ch. Axmarov, A. Abdullayev. B. Javlonov, J. Umarbekov va boshqalar. Endi tasviriy san'at va estetikasi haqida ma'lumotga eg bo'lamiz.

Tasviriy san'atda manzara maishiy ,natyurmort, portret, tarixiy, animal (hayvonot olamiga oid) afsonaviy dengiz navislik, nyu interyer janrlari mavjud. Janr rassom nimani tasvirlayotganiga qarab belgilanadi. Masalan: Asarlarda odam rasmi ishlansa, ular portret tabiat va shahar ko'rinishlarini tasvirlarlansa, manzara, turmush va mehnat jarayonlari tasvirlansa, "Maishiy janrga" xos bo'ladi. Shuningdek, tarixiy voqealarni tasvirlash tarixiy janr, hayvonlarni tasvirlash animal janr deb yurotiladi.

Animal janri lotincha "anima" so'zidan kelib chiqqan bo'lib hayvon ma'nosini anglatadi.

Batal janri esa fransuscha "batay" so'zidan kelib chiqqan bo'lib "Jang", "Nyu" janri fransuscha "Yalang'och" ma'nosidagi so'zdan kelib chiqqandir. Ayrim asarlar bir paytning o'zida ikki va undan ortiq janrlarga mansub bo'lishi mumkin. Masalan: portret va nyu ,dengiznavislik ,interyer ,manzara va hokazolar har bir janr o'z o'rniga yana bir qancha janrlarga bo'linishi mumkin. Masalan: manzara janri tabiat manzarasi janri, shahar manzar janri industrial –sanoat binolari ko'rinishi manzarasi janriga yoki portret janrinin tantanavorlik, ishqiy guruhli janrlarga bo'lish mumkin

vaqt o'tishi bilan janrlar tabaqalashib mustaqil tus olishi ham mumkin. Masalan; manzara janridagi dengiznavislik tarixiy janrida batal ,manzara janridan interyer ajralib chiqqan .

Maishiy janrda ijod qilish boshqa janrlarga nisbatan ancha murakkab bo'lib uning ishlash jarayonida insonning fikrlash qobiliyati dunyoqarashi juda katta ahamiyatga egadir.



## 1.2. Maishiy janrda ijod etgan rassomlar

Kartinalarda faqat tarixiy, qahramonona voqea va hodisalarnigina emas, balki oddiy hayotni ham tasvirlash mumkin.

Bunday kartinalar maishiy janr asarlari hisoblanib, ko`pincha ular janrli rangtasvir asarlari deb yuritiladi. Asosan bu voqealar rangtasvir polotnolarida tasvirlanadi, lekin ularni grafikada va xaykaltaroshlikda ham uchratish mumkin.

Rassomlar tomonidan turli davrlarda yaratilgan maishiy voqealar o`sha davrlarda yashagan odamlarning hayoti bilan tanishtiradi. Bu janr XV-XVII asrlarda Yevropa milliy maktablarida gullab yashnadi. Bunga misol qilib P.Breygelning "Kretyanning to`yi" kartinasini keltirish mumkin.

Bu kartinada halq bayramining go`zal va quvnoq sahnalari o`z ifodasini topgan. Flamand P.Rubens o`zining asarlarida qishloq bayramlarini realistik ravishda tasvirlaydi. Golland rangtasvirchilari (G.Gerborx, Ya.Vermer) jamiyatning turli qatlamlari hayotini mehr - muhabbat bilan tasvirlaganlar. XVIII asr Frantsuz rassomlari A.Vatto, F.Bushe, J.B. Sharden, O.Fragonarlar ham maishiy janrda asarlar yaratganlar. Keyinchalik rassomlar bo`layotgan voqealarni oddiy qilib tasvirlamasdan uning ichki mohiyatini ochib berishga harakat qila boshladilar. Jamiyat hayotiga tanqidiy munosabatda qarash frantsuz rassomlari O.Dome, G.Kurbe va rus rangtasvirchilari A.Venetsianov, G. Myasoyedov, V.Perov, I.Repin, P.Fedotov va sayyor rassomlar ijodida o`z aksini topdi. Rus rassomi B. Kustodiyev o`z kartinalarida savdog`arlar hayotini turli qirralari bilan tasvirlagan.

Maishiy janr O`zbekiston rangtasvirchilarining ham kuchli jihatlaridan biri hisoblanadi. O`zbekistonda kuchli realistik maktab tarkib topishi ajoyib rangtasvirchilar sulolasini vujudga keltirdi. O`zbek tasviriy san'atidagi maishiy janrni eng avvalo rassomlardan L.Bure, A.Isupov, O.Tatevosyan, A.Volkov, I.Kazakov va boshqa rassomlar rivojlantirdilar. Maishiy janrda yaratilgan rangtasvir asarlarida o`zbek halqining hayoti o`ziga xos tarzda tasvirlangan.

Ayniqsa rassom A.Volkov o`z asarlarida milliylik va milliy an'analarni juda katta ehtirom bilan tasvirlagan. Uning asarlaridan "Qizil choyxona", "Choy", "Eski shahar choyxonasi", "Sandalda" kabi asarlari g`oyat go`zal yaratilgan. Yana bir rassom P.Benkov o`z asarlarida o`zbek halqining hayotini yangi qirralarini ochib berishga harakat qildi. Uning "Buxoro bozori", "Ko`cha arizachisi", "Uzum bozori", "Sabzavot bozori" kabi asarlari o`zida sharq halqlari hayoti, odamlar harakatining turli-tuman ritmini, milliy kiyimlarning go`zalligini, bozorlarning to`qin-sochinligini aksettirgan. Rassomlardan M.Nabiyev, T.Oganesov, M.Saidov, R.Axmedov, B.Boboyev, V.Burmakin, J.Izentoyev. A.Ikromjonov, Yu.Taldikin, R.Xudoyberganovlar ham janrli kartina yaratish soxasida mehnat qildilar.

Keyingi davrlarda maishiy, tarixiy va batal janrlari orasidagi chegaralar yo`qolib ketdi. XX asr maishiy janrining rivojlanishi murakkab va turli-tuman yo`ldan ketdi. Bu davr kartinalariga psixologik nyuanslar va o`zgaruvchan voqealar xosdir. Kartinalarda simbolik mazmun ham ochib berilgan (P.Gogen, V.Borisov - Musatov, K.Petrov - Vodkin) shu bilan birga oddiy hayotiy voqealar ham bo`rttirib, qahramonona ko`rinishda beriladi. (B.Ioganson, A.Deyneka, A.Plastov).

Maishiy va tarixiy janrlarda personajlarning o`zaro aloqasi juda muhim bo`lib, obrazlar rang yordamida yaratiladi. Biz avvalo kartinaning syujetiga, nima tasvirlaganiga e'tibor beramiz, keyin esa uning bo`yoqlari, qanday ishlangani va ishlanish uslubiga e'tiborni qaratamiz. Chunki kartinaning kayfiyati, elyutsional ta'siri undagi ranglarning qanday tanlanganiga bog`liq. Kartinaning koloriti quvnoq va g`amgin, tinch va qayg`uli, sirli va aniq bo`lishi mumkin.

Tasviriy san'atda maishiy janr XVII asrda Gollandiyada paydo bo`lgan .Bu janr o`z mazmuni jihatidan ancha murakkab bo`lib naturmort, manzara, animal va boa janrlar bilan bog`liq tarzda yaratiladi. Ba`zan esa grfika va haykaltaroshlikda ishlatiladi.

Maishiy janrda ijod qilgan rassomlar tarixda nihoyatda ko`p bo`lib ulardan eng mashhurlari sifatida turli zamon va makonda yashab ijod etgan Kamoliddin Behzod, Leonardo Davinchi va Sikeyroz, Re Kent O`rol Tansiqboyev, Nurxon

Ziyoxonovanning “Zamonaviy qiz “ asari O’rol Tansiqboyevning “Vahshiyning yo’lini “Ozod qilingan yerlarida “,”Partizan ayol “asarni tilga olish mumkin. Akram Hayitov “Ajral urug’i” .Ulug’bek Otanzorov ”Dugonalar” asarlari I.Repin ”Burloqlar volgada” A.Aliqulov “Samarqand bozori”.

Bahor mavzusida eskiz chizishni o’quvchilarga bosqichma bosqich o’rgatish.Shu mavzuda ishlagan rassomlarni aytamiz. Kent Rokulning “Dengiz zahmatkashlari” “Baxor istiroblari” I.Levitan “ “Mart” ‘Girdob oldida” Rodin “Mangu baxor” I .Snishkin “Bug’doyzor” “Kesilgan o’rmon”.Fransua Ogyust “Mangu baxor”.asarlari juda mashhur.

Bundan tashqari o’zbek rassomlari manzara janriga juda samarali ijod qilganlar.masalan; O’rol Tansiqboyev, Ch.Axmarov, A.Abdullayev. B.Javlonov, J.Umarbekov va boshqalar. Endi tasviriy san’at va estetikasi haqida ma’lumotga ega bo’lamiz.

Maishiy janrda ijod qilgan rassomlar O’rta Osiyoda ham ko’plab topiladi. Bunga 15- asrga yashab ijod qilgan o’z davrining yetuk rassomi Kamoliddin Behzodni misol qilib olish mumkin.Sharda esa juda mashhur Leonardo Da Vinnchi ,Ilya Repin, Inog’omov ham biridir . U 1452-1519 yillarda yashab ijod etgan.U italyaning Vinchi shahrida tug’ilgan.U rassomchilik bilan bir qatorda boshqa yo’nalishlarda ham ijodiy ish olib borgan. Rassomning eng mashhur “Sirli tun” deb nomlanga .Bu asar 1495-1447 yillarda yaratilgan bo’lib unda Milan shahrining Santa Mariya ibodatxonasida ro’y bergan fojiviy voqea tasvirlanadi. Ma’lum bo’lishicha o’z ustozlariga umrbod sodiq shogirdlar orasidan sotqin chiqadi. Asardaa Iso payg’ambar o’z shogirdlari bilan birgalikda muhakama betishni aks ettirilgan rassom suratda insonlarning hishayajonlarni nihoyatda keng shu bilan birga asardagi obraz va detallarni bir-birlari bilan uyg’un holda muvofiqlashgan.Rassomning mashhur qilgan asarlardan biri “Madonna”,”Jakonda” deb atalgan. Leonardo Da vinchi o’z hayotida ko’plab yuksak badiiy saviyadagi asarlar yaratdi.Ulardan “Madonna Benual”,”Madonna Litta”,Qoyadagi Madonna” ”Gul ushlagan Madonna ’,”Oq sichqon ushlayotgan ayol” va boshqalarni tilga olish mumkin .Daho Leonarda da Vinchining asarlari

kishilarni o'ylashga, go'zalikni tushunishga va qadrlashga o'rgatib kelmoqda. Uning betakror ijodi barcha davr rassomlari uchun namuna va tajriba maktabi bo'lib qolaveradi. Umarbekov, R. Kent va boshqalarni tilga olib o'tish mumkin. Leonardo Da Vinchi uyg'onish san'at davrlaridan biri.

Tarixiy va maishiy janrlar ishtirokchilarning o'zaro uyg'unligi muhim ahamiyatga ega bo'lib obrazlar xarakteri otda janrlar vositasida yechim topadi.

Musavvirlarning tarixiy janrida ko'p odamli kompozitsiyalar real rang yechimi bo'gan asarlar yaratilishda o'tmish voqealari va tabiat manzaralari ilhomlantiradi.

Kartinalarda faqat tarixiy, qahramonona voqea va hodisalarnigina emas, balki oddiy hayotni ham tasvirlash mumkin. Bunday kartinalar maishiy janr asarlari hisoblanib, ko'pincha ular janrli rangtasvir asarlari deb yuritiladi. Asosan bu voqealar rangtasvir polotnolarida tasvirlanadi, lekin ularni grafikada va xaykaltaroshlikda ham uchratish mumkin.

Rassomlar tomonidan turli davrlarda yaratilgan maishiy voqealar o'sha davrlarda yashagan odamlarning hayoti bilan tanishtiradi. Bu janr XV-XVII asrlarda Yevropa milliy maktablarida gullab yashnadi. Bunga misol qilib P. Breygelning "Kretyanning to'yi" kartinasini keltirish mumkin. Bu kartinada halq bayramining go'zal va quvnoq sahnalari o'z ifodasini topgan.

Flamand P. Rubens o'zining asarlarida qishloq bayramlarini realistik ravishda tasvirlaydi. Golland rangtasvirchilari (G. Gerbors, Ya. Vermer) jamiyatning turli qatlamlari hayotini mehr - muhabbat bilan tasvirlaganlar. XVIII asr Frantsuz rassomlari A. Vatto, F. Bushe, J. B. Sharden, O. Fragonarlar ham maishiy janrda asarlar yaratganlar.

Keyinchalik rassomlar bo'layotgan voqealarni oddiy qilib tasvirlamasdan uning ichki mohiyatini ochib berishga harakat qila boshladilar.

Jamiyat hayotiga tanqidiy munosabatda qarash frantsuz rassomlari O. Dome, G. Kurbe va rus rangtasvirchilari A. Venetsianov, G. Myasoyedov, V. Perov, I. Repin, P. Fedotov va sayyor rassomlar ijodida o'z aksini topdi. Rus rassomi B. Kustodiyev o'z kartinalarida savdog'arlar hayotini turli qirralari bilan tasvirlagan.

Maishiy janr O`zbekiston rangtasvirchilarining ham kuchli jihatlaridan biri hisobalanadi. O`zbekistonda kuchli realistik maktab tarkib topishi ajoyib rangtasvirchilar sulolasini vujudga keltirdi.

O`zbek tasviriy san'atidagi maishiy janrni eng avvalo rassomlardan L.Bure, A.Isupov, O.Tatevosyan, A.Volkov, I.Kazakov va boshqa rassomlar rivojlantirdilar. Maishiy janrda yaratilgan rangtasvir asarlarida o`zbek halqining hayoti o`ziga xos tarzda tasvirlangan.

Ayniqsa rassom A.Volkov o`z asarlarida milliylik va milliy an'analarni juda katta ehtirom bilan tasvirlagan. Uning asarlaridan "Qizil choyxona", "Choy", "Eski shahar choyxonasi", "Sandalda" kabi asarlari g`oyat go`zal yaratilgan.

Yana bir rassom P.Benkov o`z asarlarida o`zbek halqining hayotini yangi qirralarini ochib berishga harakat qildi. Uning "Buxoro bozori", "Ko`cha arizachisi", "Uzum bozori", "Sabzavot bozori" kabi asarlari o`zida sharq halqlari hayoti, odamlar harakatining turli-tuman ritmini, milliy kiyimlarning go`zalligini, bozorlarning to`qin-sochinligini aks ettirgan.

Rassomlardan M.Nabiyev, T.Oganesov, M.Saidov, R.Axmedov, B.Boboyev, V.Burmakin, J.Izentoyev. A.Ikromjonov, Yu.Taldikin, R.Xudoyberganovlar ham janrli kartina yaratish sohasida mehnat qildilar.

Keyingi davrlarda maishiy, tarixiy va batal janrlari orasidagi chegaralar yo`qolib ketdi. XX asr maishiy janrining rivojlanishi murakkab va turli-tuman yo`ldan ketdi. Bu davr kartinalariga psixologik nyuanlar va o`zgaruvchan voqealar xosdir. Kartinalarda simvolik mazmun ham ochib berilgan (P.Gogen, V.Borisov - Musatov, K.Petrov - Vodkin) shu bilan birga oddiy hayotiy voqealar ham bo`rttirib, qahramonona ko`rinishda beriladi. (B.Ioganson, A.Deyneka, A.Plastov).

Maishiy va tarixiy janrlarda personajlarning o`zaro aloqasi juda muhim bo`lib, obrazlar rang yordamida yaratiladi. Biz avvalo kartinaning syujetiga, nima tasvirlaganiga e'tibor beramiz, keyin esa uning bo`yoqlari, qanday ishlangani va ishlanish uslubiga e'tiborni qaratamiz. Chunki kartinaning kayfiyati, elyutsional ta'siri undagi ranglarning qanday tanlanganiga bog`liq. Kartinaning koloriti quvnoq va g`amgin, tinch va qayg`uli, sirli va aniq bo`lishi mumkin.

## **Pavel Benkov**

Pavel Petrovich Benkov 1879 yilda qozon shahrida tavallud topgan. 1949 yilda Samarqandda vafot etgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi (1939). qozon Badiiy bilim yurtida o'qigan. Peterburg Badiiy akademiyasida, D.N.Kardovskiydan, Parijda rassom R.Jyulianning xususiy akademiyasida ta'lim olgan. Italiya, Ispaniya, Franstiyaga safar qilgan. 1913-1928 yillar davomida "Kovalevskiy bolalarining portreti", "Rassom ayol portreti" asarlarini yaratgan. qozon Katta teatrida betakror spektakllarga dekorastiyalar yaratdi. 1929 yilda Samarqandga kelib 1930 yildan boshlab shahardagi badiiy bilim yurtida o'qituvchi bo'lib ishladi. Uning 30-yillar o'rtalarida yaratgan asarlarida O'zbekistonni, uning qadimiy shaharlari qiyofasi, o'ziga xos iqlimi, serquyosh manzaralari, o'zbek millati madaniyatini, kishilarini yorqin bo'yoqlarda gavdalantirdi. Uning ("Buxoro timi", (1929;); "Xivalik qiz", (1931;); "Dugonalar", (1940;); "qaxramonning onasi", (1942); "Janchiga sovg'a", (1945;); "Dutorchi qiz", 1947; "Buxoroda oshxona" 1929, "Eski Buxoro" (1931,) "Minorai kalon" (1930)-; "Ko'cha" (1943), "Registondagi choyxona" (1944), nomli asarlari O'zbekistonning mumtoz me'moriy obidalari va manzaralariga bag'ishlangan. Uning Samarqandning ko'cha va bog'lari, bozor va xovlilari, maydon va choyxonalari, ulardagi hayotning o'ziga xos go'zaligini yorqin va hayotiy ifodalovchi asarlar ham yaratgan. O'zbekistonda tasviriy san'atni shakllanishda, milliy kadrlar etishtirishda xizmati katta bo'lgan.

O'zbekistontasviriy san'ati ko'p asrliktarixga ega. Garchi 7-8 asrlarda san'atning xaykaltaroshlik, me'morchilik va amaliy san'at yo'nalishlarida anchagina ko'zga tashlanadigan noyob san'at namunalari yaratilganligi haqidagi qator asosiy dalillar mavjud bo'lsada, rangtasvir haqidagi deyarli ma'lumotlar bizga yetib kelolmagan.

Lekin 14-15 asrlarga kelib o'rta osiyo xududlari daxam bu soxada ancha namunaliishlar e'tiborga loyiq. O'rta asrlar davri bilan belgilanadigan bu davrda bir qator o'zbek naqqoshlari va miniatyura nafis rassomlar rangtasvirning yangi yo'nalishlarini jaxon peshtaxtasiga olib chiqishga muvoffak bo'ldilar. Terannakkkosh

Kamoliddin Bexzod, Maxmud Mo'zaxxib, Maxmud Samarqandiy, Raxmatillaal-Faqir kabi musavvirlar kitob illyustrastiyasi va miniatyura rangtasvirida ma'lum darajada muvaffakiyatlarni 20 asr boshlarida kelib O'zbekiston xududida V.V. Vereagin, R. Razin, S. Svyatoslovskiy, R. Zommer, K. Korovin, N. Kazakov, I. Yusupov kabi rus rassolarining kirib kelishi o'zbek rangtasvir xazinasining yaralishiga asos bo'ldi. Ular orasida V. Vereaginining asarlari juda muxim ahamiyat kasb etadi. Rassomning asarlari orqali 19 asr tarixiy taraqqiyotiga aniq baxo bersa bo'ladi. Mamlakat xayotidan olingan lavxalar, jang manzaralari, maishiy xayot davrning turmish tarzidan xikoya qiladi. 14-15 asr rassomlari o'z asarlarida teran falsafiy mazmun va g'oyalar o'z aksini topgan bo'lsa, 19 asr oxiriga kelib qolgan rassomlari jodida ulkaning o'ziga xos tabiati me'moriy ko'rinishlari onaer ko'rinishlarini tarannum etadi.

Ayniqsa, rassomning «Turkiston turkumi» asari davrning tarixiy voqealariga sharhi o'z ifodasini topgan.

Oktyabr inqilobidan so'ng O'zbekiston tasviriy san'ati butunlay yangi yo'nalishga kirib keldi. Dastlab o'lkamizning tabiati va madaniyati uchun yangilik bo'lgan o'zgarishlar rangtasvir, kitobgrafikasi, plakat kabilar shakllangan bo'lsa, P. Burd, N. Ryazanov, I. Kazakov, A. Nikolaev, A. Volkov, P. Benkov, Z. Kovalevskaya kabi rassomlar badiiy rassomchilikning rivojiga turli yo'nalishlarda maktablar ochdilar.

A. Volkov, P. Benkov, A. Nikolaev O'zbekiston tabiatining xususiyatlarini ochib berishga kirishdilar.

1920- yillardan so'ng O'. Tansiqboyev ijodi shakllanib yangi dekorati yechimdagi manzara janri yuzaga keldi. Buyillarda tasviriy san'atda turli uslubiy yo'nalishlar;

1. Naturalizm;

2. Ekspressionizm;

3. Abstrakstionizm kabi oqimlar yuzaga kelib, san'atda tartibsiz mavxumliklar xususiyatlari namoyon bo'ldi. 30- yillargacha davom etgan bunday tartibsizliklar asta – sekin o'z o'rnini realizmga bo'shatib berdi. Asosiy mavzular o'zbek xalqining baxtiyor turmush tarzi mexnatkashlar obrazi yangi « qizil » bayramlarini tashkil etadi. Tasvirlar yangilik bilan eskilik o'rtasidagi tafovvutni ochib berishga bo'lgan intilishlar natijasi edi. V. Rojdenstvenskiy xajviy grafikasida S. Malt, I. Ikramovna fis kitob grafikasida O. Tatevosyanlari jodiaynan xajviy tarzda salbiy xususiyatlarni ochib berishga karatilgan edi. 1932- yilda birinchi bor O'zbekistonda badiiy ko'rgazmatashkiletildi. Unda rus rassomlari bilan bir qatorda O'. Tansikboev, B. Xamdamiy, A. Siddikiy, L. Abdullaevlar qatnashdilar. 1934- yilda Moskvada shunday ko'rgazma tashkil etildi.

Endi O'. Tansiqboyev, N. Karaxon, N. Kurzin, N. Kashina, A. Volkov, usta Mo'minlar xam yangi davr mazzulariga murojat qilib zamondoshlar portreti, zamonaviy xayot syujetlarini realistik tarzda namoish qildilar. Litografiya, estamp kabi grafikaturlari rivojlandi. Dastgoxli grafikada portret manzara janrlari yuzaga keldi.

1929- yilda N. Benkov Samarqandga ko'chib keldi. Aslida teatr dekorati bo'lgan bu rassom O'zbekistonda realistik rangtasvir janrini shakllanishiga sabab bo'ldi.

Uning asarlarida O'zbekistonning Samarqand, Xiva, Buxoro kabi shaxarlari qiyofasi o'ziga xos tabiati, milliy madaniyati kishilarnin go'ziga xos o'zgacha xususiyatlaridagi go'zalliklari yorqin ranglarda ishonarli tarzda gavdalandi. Bunga quyidagi misollarni «Buxoro», «Xivalikkiz», «Dugonalar», «Eski Buxoro» asarlarini keltirib o'tsa bo'ladi.

O'. Tansiqboyev esa o'ziga xos lirik manzaralar yaratib « Moviymanzara », « Utov », « Tungi sugorish », « Chirchikvodiysida », « Kushigim » yangi saxifabo'ldi. B. Xamdamiy « Ishtugadi », « Kolxozchoyxonasida », « Farxod Xusrav » asari, A. Volkov « Terimchikizlar », « Shaximardonda tushpayti », N. Karazin « Gallaurimi », « Ayollargallazorda », UstoMumin « Okoltin », N. Kashina « Sirdaryodanutish », «



Moskva-Korakul-Moskvaavtopoygasi », A. Siddikiy « Tuy », « Avtoportret », A. Abdullaev « Yoshshoirlarxo'zurida » kabi yirik asarlar dunyoga keldi.

Manzara janri o'zbek rangtasvirida muxim o'rin egallab unda O'. Tansiqboyev, N. Karaxon, UstoMumin, R.Temurovlar samarali ijod qildilar. Ayniqsa O'.Tansiqboyevning « Issikkul » turkumi, « Jonajonulka », « Sirdaryo » kabi asarlari bu janrda muxim urinlarni egallaydi.

Ular qatoriga kir b ulgurgan A. Volkov, B. Benkov, N. Kashina, A. Abdullaev, S. Abdullaev, N. Nabiev, V. Evenkovlarxam samaraliijodqildilar.

Moskva va Leningrad oliy badiiy bilim yurtlarini tamomlaganR. Axmedov, M. Saidov, N. Ko'ziboev, T. Oganegov, Z. Inogomov, Yu. Elizarevlarning kelib qo'shilishi O'zbekiston rangtasvirining maishiy va portret janri doirasini kengayishiga xissa qo'shdi.

R. Axmedov « Deputatayol », « Keksakolxozchi » Portreti, M. Saidov

« Dugonalar », « Xirmonda », « Oila », N. Ko'ziboev « YunusRajabiy », « Xamza », « Cho'ponlar », « Uygonish », Z. Inogomovning « Choyga », « Choyxonachi », « 18 asrSamarqandxalqko'zgoloni », « Eregalari » asarlari bilan ma'lum darajada yutuqlarga erishdilar.

P. Benkov ijodida O'zbekiston me'moriy manzarasi. Manzara nafis rassom. Benkov ijodiga bir nazar.

Aslida bu rassomning o'zbek yurtiga keliishi kaminani baxt deb atasaxam bo'ladi.

Rassom 1898 – 1899 yillarda Qozon shaxridagi badiiy bilim yurtida ta'lim olgan. 1901 yil badiiy akademiyaga kirib u yerda Kardovskiy qo'lida ta'lim olgan va shu yerda «Davlat dumasining kengashi» asariniyaratgan. Uteatrni sevganvatez-tezteatrga borib turgan.

Shu bois teatr rassomi sifatida malakasini oshirib ko'pgina teatr dekorastiyalarini bajargan. «Sirlioyna» , «Ruslan va Lyudmila» saxnaasarlari dekorastiyalarini bajarib P. Benkov tanilib qolgan. Ikkichibor chetelga Parijga sayoxat uyushtirgan.

1909-10 yillarda o'zining birinchi bor badiiy ko'rgazmasini tashkil etgan. 1920 yilda «Milliykiyimlitatarkiz», «Teatrtatarpessasi», «Zangorishol», «ToxirvaZuxra», «Xindkizi», «Oliyabanu» kabi spektakllarni saxnalashtirgan. Rassom 1929 yilda Turkistonga kirib kelgan Samarqanddagi madrasaga joylashib olib shu yerda mavzuli kartinalar yaratishga kirishdi. Rassomning dastlabki kartinalari «Piyola ushlagan tojik», «Kuxna Buxoro», «Ko'cha manzarasi», «Buxorodagi yopiq bozor», «Labixavo'z» nomli asarlar bilan o'zbek tasviriy san'atiga kirib keldi.

Bu rassom haqida juda ko'pilik so'zlarni aytish mumkin zero u yozgan xar bir polotnonafakat me'moriy inshootgina bo'lib qolmay balki o'sha davr maishiy turmush tarzi tarixiy sharoit nuqtai nazaridan ko'zatib aniq baxo berilgan edi. Ayniqsa, kizgin suxbat, Gavjum kuchalar o'zbekning milliy urfodatlarini uning eng mazmunli badiiy maqsadli g'oyalaridan biri edi. Aynan shu mavzularni o'zida mujassam etgan kartinalar «Uba», «Gijduvonkulollari» Buxoroda yozilgan bo'lsa «Xorazmchigiri», «Sabzavotbozori», «Xivalikkiz» esaXorazmda, «Yigitcha», «O'zbekiyigiti», «Bibixonim», «SamarqandvaRuxobod» asarlari Samarqand shaxrida o'z isbotini topdi.

«Nega, biz u xaqada kuyunibyoza yapmiz»-debuylashimiz mumkin, chunki aynan men yozayotgan asarlarda rassom PavelBenkov o'tayorqin ranglarda tarixiy shaxarlarimiz qiyofasini, jamolini, tabiatiniilk boryoritgan shaxs sifatida namoyon bo'lgan buyuk rassomdir shu bois xam biz uni chizgan rasmlaridan ilxomlanib kadrlaymiz, xurmatkilamiz

O'.Tansiqboyev xam O'zbekiston manzara janrida uchmasiz qoldirgan musavir sifatida tan olingan. Bu rassom repertuaridagi mavzular tabiat kuyni datanlangan va

«Tabiatkuychisi» degan sharaflinomga sazovor bo'lgan. O'. Tansiqboyev va sarlarida P.Benkovniki kabi me'moriy inshootlar deyarli uchramaydi lekin Shirintuyg'u, takrorlanmas tabiiy go'zallik tasvirlangan obektga xos tarzda o'zaksini topib olgan. Rassomning manzaralari o'zining aktualligi, badiiyligi uningdek orativ xususiyatlarini yuzaga chiqarishi, lirikechimga ega bo'lishi bilan xarakterlieng muximi O'zbekistonrang tasvirida rus rassomlari I.Shishkin, A.Savrasov, I.Levitanlar kabi o'zmaktabini yaratdi.

Ko'pgina tarixiy dalillar Buxoro zaminida Ismoil AL-Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Rudakiy, Farobiy kabi donishmandlar dunyoga kelganligi uning faxr deb e'tirof etiladi. 1929- yilda N. Benkov Samarqandga ko'chib keldi. Aslida teatr dekorati bo'lgan bu rassom O'zbekistonda realistlik rangtasvir janrini shakllanishiga sabab bo'ldi.

Uningasarlarida O'zbekistonning Samarqand, Xiva, Buxoro kabi shaxarlari qiyofasi o'ziga xos tabiati, milliy madaniyati kishilarning o'ziga xos o'zgacha xususiyatlaridagi go'zalliklari yorqinranglarda ishonarli tarzda gavdalandi.

### **1.3. Maishiy janr ishlashda rang va bo'yoqlardan foydalanish**

Rangni his qilish - halq badiiy madaniyatini aks ettirishdir. Odamlarda rangni qabul qilish individual xarakterga ega. U odamning jinsi, yoshi, kayfiyati, hayotiy tajribasi va ko'pgina boshqa sabablarga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga turli odamlardagi rangni qabul qilishda ko'pgina umumiylikni topish mumkin. Rang orqali fikrlash va konstruksiyalash mumkin. Rang predmetning shaklini bera oladi, atrof-muhitni go'zalligini tasvirlaydi, hissiyotlarni, kayfiyatni, aniq emotsional holatni aks ettiradi. Rang so'zi rangtasvir jarayonini ko'pgina sifatlarini aniqlaydi, shuning uchun ham rang san'atning bu to'rini asosi hisoblanadi. Rangtasvir uchun kerakli rang bo'yoqni palitrada aralashtirish orqali olinadi. Keyin rassom bo'yoqni kartinadagi rang tarkibi kolorit yaratish orqali kartina tekisligida rangga aylantiradi. Asrlar davomida odamlar rangni turlicha qabul qilishgan. Qadimgi odamlar biz hozir ko'ra oladigan turli ranglarni sezishmagan. U davrlarda avvalambor eng yorqin ranglar-qizil va sariqni, keyinchalik esa ko'k va yashilni ko'ra boshlashgan. Masalan, qadimgi grek rangtasvirchilari faqat to'rt hil rang ishlatishgan: bular qizil, oxra, qora va oq ranglar. Keyinchalik palitradagi ranglar ko'paya borgan, lekin rassomlar juda ham ko'p vaqtlargacha yashil va ko'k rangni ajrata olishmagan, pushti va siyohrang bo'yoqlarni esa keyinchalik ajrata boshlashgan. Lekin bu faqat taxmin xolos.

Umuman olganda dunyoni rang-barang qabul qilish Shimol mamlakatlaridan kelib chiqqan deyish mumkin. Chunki u yerlarda atmosferaning namligi yuqori bo'lganligi uchun rang tonlari bir-biriga yengil kirishib ketgan va rassomlar osmon, yer, dengiz va uzoqlarning boy rang jilvalariga diqqat bilan qaray boshlashgan. Bu keyinchalik Venetsiya, Parij, Amsterdam, Londonda koloritik rangtasvirning tug'ilishiga olib keldi. Eng muhimi rassomlar kartinani ochiq havo (plener) da ishlab boshlashdi. Bu ularning rangni yaxshi ajrata olish qobiliyatini o'stirdi.

Demak, odamlarning rangni qabul qila olishda tabiatning o'zi yordamga kelgan. Tabiatdagi ranglarning bir-biriga mosligi, uning yaxlitligi va uyg'unligi rassomga tabiat hodisalarini kartinaga tushirish yo'llarini izlashda yordam beradi. Rangni qabul qilish ko'p jihatdan rang tonlariga, uning yorqinligi va to'yinganligi darajasiga

bog`liq. Rassom ranglarni kartinada ijod mahsuli sifatida qo`yish uchun tez-tez yangi vositalarni, texnikani izlab topadi. Rang insonni quvontirishi va jahlini chiqarishi, qo`rquv, g`am yoki alam hissini uyg`otishi mumkin. Boshqacha so`z bilan aytganda, rang odamlarga emotsional ta'sir o`tkazadi. Ba'zi ranglar nerv sistemasini tinchlantirsa, ba'zilari aks ta'sir ko`rsatadi. Yashil, osmon rang, ko`k ranglar tinchlantirsa, qizil. Zarg`aldoq, sariq ranglar hissiyotini qo`zg`otadi. Ranglarning insonga ta'sirini birinchi bo`lib I.Gyote o`rgangan. U shoir sifatida yashil rang sahiylik, tinchlik, ko`zni va qalbni tinchlantiruvchi vosita deb bilgan. Ko`k rang sovuqlik hissini uyg`otishini, qizil rang esa aks ta'sir ko`rsatishini sezib bila olgan. M.Gyote bir hil manzarani yashil, sariq, qizil va boshqa ranglarni shishadan kuzatishni yoqtirgan va bu holatda odamning emotsional holatini o`zgarishini kuzatgan.

Tasviriy faoliyatda qizil rang hissiyotini qo`zg`atuvchi, qizdiruvchi, tiriltiruvchi faol rang sifatida sariq rang esa - issiq, quvnoq, tektiklashtiruvchi, olov sahiy rang sifatida qabul qilinadi. Yashil rang ham xotirjamlik, yoqimli va tinch kayfiyatni yaratadi. Ko`k rang esa jiddiy, qayg`uli, g`amgin, sentimental va tinch rang sifatida xarakterlanadi. Siyohrang qizil va ko`k ranglarning emotsional ta'sirini birlashtiradi. U bir vaqtning o`zida o`ziga tortuvchi va uzoqlashtiruvchi, hayotga to`lik, shu bilan birga g`am va qayg`uni keltiruvchi rang hisoblanadi. Ranglarni qabul qilish ko`p jihatdan yorug`likka ham bog`liq bo`ladi. Agar biz qalamtasvirda masofani chiziqli perspektiva yordamida bersak, rangtasvirda esa bu holatni naturani rangli va tonli munosabatlaridagi o`zgarishlar asosida beramiz.

Havo perspektivasi qonuniyatlariga ko`ra uzoq masofada turgan to`q rangli predmetlar sovuq tusga, ko`pincha osmonrangga, yorqin ranglar esa issiq tusga kiradi.

Bo`rtgan ranglar qatoriga, asosan issiq ranglar kiradi. Bunday rangli predmetlar o`zlari turgan joyga nisbatan yaqinroqda turganga o`xshab ko`rinadi.

Uzoqlashtiruvchi ranglarga sovuq ranglar kiradi. Sovuq rangli predmetlar esa xuddi uzoqlashganga o`xshab qoladi. Bu bilimlarni ijodiy qo`llash orqali kartina

tekisligida chuqurlikni berish mumkin, yoki aksincha tasvirning biron-bir qismini yaqinlashtirish mumkin. Buyuk rassom Rembrandt o`zining rangtasvir asarlarida yorug`likni juda muvaffaqiyatli qo`llagan. Uning kartinalari hamma vaqt ichki yorug`lik bilan yoritilgan. Unda tasvirlangan oddiy odamlar xuddi kartinadan nur taralayotganga o`xshab ko`rinadi. Rassomning buyukligi uning insoniyligidadir. U o`zining mo`yqalami bilan yorug`lik olib keladi. Rembrandt asarlaridagi yorug`lik inson qalbini ko`rishga yordam beradi.



### **S.Abdullayev. Mezbon**


### **Z.Faxriddinov. Sarbadorlar.**

Insonlarning kundalik turmushda bajarayotgan ishlarining kartinalarda tasvirlanishi maishiy janr asari hisoblanadi. Bu mavzuda A.Venetsianov, P.Fedotov, V.Perov, G.Myasoyedov, B.Kustodiyev, shuningdek, Z.Inoomov, R.Ahmedov, .Abdurahmanov, A.Mirzayev, A.Abdullayev va boshqalar samarali ijod qilganlar.






M.Nabiyev. Abu Bakr ar-Roziy.



Z.Inoomov. Qiyem payti.



O.Tatevosyan. Qariyalar.





R.Ahmedov. Qo'shiq.



N.Kashina. Kuz ne'matlari.



Rassom rangni turlicha qabul qilish mumkin, rang bilan fikrlash va loyihalashi ham mumkin. Rangshunoslik asoslari, «rang» bilan «bo'yoq» tushunchalarining farqini o'rganish lozim. Rangtasvirda kerak bo'lgan rangni, palitrada bo'yoqlarni aralastirish orqali hosil qilinadi. Rassom bo'yoqlardan ranglar majmuasini hosil qilib asar yaratadi. Birgina «rang» so'zining o'zi bitta bo'lsa ham, rangtasvir jarayonining ko'pgina sifatini belgilaydi, shuning uchun rang san'at turining asosi hisoblanadi.

Tasavvur qiling, barcha ranglar atrof hayotimizdan yo'qolib ketsa, unda biz faqat oqimtir kul rangni ko'ramiz. Qandaydir ma'yus, bir xillik va odatlanmagan surat hosil bo'ladi. Demak, rang bizning hayotimizda muhim o'rinni egallaydi.

Har bir buyum o'z rangiga ega. Ayrim obyektlarni rang orqali idrok etamiz. Masalan, uchta dumaloq shakl va o'lchami bo'yicha ham bir xil obyektini olamiz. Ularni tegishli ranglarga bo'yab, xohlasangiz zaraldoq apelsin, qizil pomidor yoki yashil olmaga aylantirish mumkin.

### **Ranglar simbolikasi**

Ranglarning yagona simbolik sistemasi hech qachon bo'lmagan, lekin asrlar davomida hamma tushunarli bo'lgan aniq rang simvollari paydo bo'lgan. Qadimdan insonlar ranglarga katta ahamiyat bergan. Quyida biz ba'zi ranglarning simbolikasini ko'rib chiqamiz. Qizil rang - bu olov, issiqlik, quyosh, qonimiz rangi, demak hayot rangi hisoblanadi. Qadimdan olov inson taqdirida muhim rol o'ynagan. Ibtidoiy davrlarda ham qizil bo'yoq ulug'lik va yorug'likni, shuningdek xavf - xatar belgisini bildirgan. Svetoforning qizil signali ham to'xtash lozimligini bildiradi. bizning Atrofimizdagi xavf-xatarning rang signallari qizil rangda. Qizil rang tantanani aks ettiradi, hurmat va ehtiromni bildiradi, shuningdek uni qirollar rangi deb atashadi. Ba'zi mamlakatlarda hurmatli mehmonlar oyog'i ostiga hurmat belgisi sifatida qizil gilamlar to'shash an'anaga aylangan. Ko'pgina qirollar qizil rangli mantiya osib yurishni ma'kul ko'rishgan, fors shohlari esa oltin qushlar tikilgan qizil kiyim kiyishgan.

Xitoyda - qizil rang Feniks qushi ramzi hisoblanadi. Bu qush o'zini yoqib, keyin kuldanda qaytadan tug'ilish qobiliyatiga ega bo'lgan. Yaponiyada esa quyoshga

sig`inishlari sababli, qizil rang hosil va to`qlik keltiruvchi quyosh rangi hisoblangan. Yaponlar qizil rang yovuz kuchlar va falokatdan, kasallik va baxtsizlikan asrashiga ishonishadi. Yaponiyaning davlat bayrog`ida quyoshning qizil halqasi tasvirlangan. Qizil - bayroqlar rangi. Qizil rangdagi havo sharlari va bayroqchalari bayram kayfiyatini yaratadi. Rus halqining madaniyatida qizil rang xavf-xatardan saqlovchi rang hisoblangan. Dehqonlarning kiyimlari ho`jayini yovuz kuchlardan saqlovchi qizil iplar bilan tikilgan. Shuningdek qizil rang sevgi - muhabbat ramzidir. Qizil atirgullarni sevgi belgisi sifatida taqdim qilishadi. **Zarg`aldoq rang** ham quyosh rangi sanaladi. Bu muvaffaqiyat va zafar keltiruvchi quvnoq rang. Qadimda cho`pon va dehqonlarning hayoti tabiat kuchlariga, asosan quyoshga bog`liq bo`lgan. Afsonalardagi barcha quyosh xudolari oltinrang kiyimlar kiyib, oltin aravada yurishadi. Tabiatda zarg`aldoq ranglar juda kam. Yo`l ishchilarining kiyimlari ham zargaldoq rangda bo`ladi, chunki zargaldoq rang uzoqdan ko`zga yaxshi tashlanadi. Bu esa yo`ldagi har hil halokatlarning oldini oladi. Birinchi kosmonavtlarning kiyimlari ham zarg`aldoq rangda bo`lgan, chunki shunda ular yerga qo`nganidan so`ng toppish osonroq bo`lgan. **Sariq rang** ko`pgina tusharga ega. Quyosh yorug`ligining rangi sariq rangga mos keladi. Qadimgi davrlardan sariq rang ilohiy va tillarang hisoblangan. Bundan tashqari yorqin va tiniq sariq rang yuqori ijodiy yuksaklik va haqiqat hissini beradi. Avstraliyaning yerli halqi uchun esa sariq rang hayot rangi hisoblanadi. Shuning uchun ham avstraliya bayrog`ining o`rtasida sariq rangli aylana joylashgan. Shu bilan birga turli halqlar madaniyatida sariq rang sahiylik, qo`rqoqlik va qo`rquvni bildiradi. Ko`pgina rassomlarning kartinalarida Iuda sariq rangli kiyimda tasvirlangan, chunki u Iisusga sotqinlik qilgan. Ko`pincha sariq rangli gullarni o`zlari yoqtirmaydigan odamlarga sovg`a qilishgan.

**Yashil rang** - tabiat, hayot, abadiylik rangi. Bu Yerdagi hayotni ularsiz tasvavvur qilib bo`lmaydigan yashil o`simliklar (yaproqlar, o`t-o`lanlar, shoxlar va hokazo) dunyosi. Yashil - yangilanish, tug`ilish, yoshlik, usmirlik, umidlar ramzi. Yashil rangni ekologik tashkilotlar o`zlarining simvoli sifatida qabul qilishgan. Masalan Grinpis (inglizchadan "Yashil") halqaro harakati tabiat, o`rmonlar, dengizlarni saqlab, kelajak avlodlarga yetkazish uchun harakat qilishadi.

**Osmon rang va ko`k rangi** - osmon va suv, muomala va hissiyot rangi hisoblanadi. Osmonrang tonlar yengillik, tozalik, salkinlik hissiyotini uygotadi. Ko`k rang abadiylik va turg`unlik, sir va haqiqatni bildiradi.

**Siyohrang** - faylasuflar va shoirlar, haqiqatni tushunish rangi. Chiroyli va toza siyohrang insonning intellektual qobiliyatlari bilan bog`liq.

**Oq rang** - tozalik, mayinlik va haqiqat rangi. Shuning uchun ham ko`pgina mamlakatlarda kelinlar oq rangli libos kiyishadi. Ko`pgina Xitoy, Osiyo va Afrikaning issiq mamlakatlarida oq rang motamni bildiradi. slavyanlar vafot etgan odamlarga oq kiyim kiygizishadi.

**Qora rang** - motam va qayg`u rangi. Yevropa mamlakatlarida motam marosimlarida qora kiyim kiyiladi. Bundan tashqari qora rang tantanavorlik va talabchanlikni ham bildiradi. qora rangli kuylaklar ishga yoki tantanali uchrashuvlarda kiyiladi. Masalan, simfonik orkestr dirijyori albatta qora frak kiyishi lozim.

An'ana va bayramlarda rangning roli juda katta. Turli halqlarda bitta rangga turlicha ta'rif berilishi mumkin. Hatto zamonaviy meditsinada qadimgi tabobat asosida turli kasalliklarni rang bilan davolashadi.

Tasviriy san'atda asarning fikriy-obrazli mazmunini ochib berishda rang muhim rol o`ynaydi. Buni qizil rang misolida ko`rib chiqamiz. Bu juda ham mazmunli, sirli va ajoyib rang! Yuqorida aytib o`tganimizdek qizil rang quvonch va qayg`u, kurash va g`alaba, urush va sevgini, hayot va o`limni, olov va yorug`likni bildiradi.

XVIII asr rangtasvirida qizil rang boylik, aristokratizmni bildirgan, faqat ayollar va bolalar portretlarida sevgi va qalb go`zalligini bildiradi.

XIX asrning birinchi yarmidagi romantik rangtasvirida qizil rang ilohiy sevgini emas, balki haqiqiy sevgini aksettiradi.

K.Bryullovning "Pompeyaning so`nggi kuni" nomli asarida qizil rang ko`pgina insonlarning hayotini olib ketgan falokatni ko`rsata olgan. XIX - XX asrlarga kelib qizil rang revolyutsiya rangi hisoblangan. Petrov - Vodkinning "Qizil otni cho`miltirish" nomli asari yaqinlashib kelayotgan qonli voqea - urush va revolyutsiyani aks ettirgan. Yangi davr mazmun mohiyatini aks ettirishning simvoli sifatida Malevichning "Qizil kvadrat" kartinasini olish mumkin.

Ulug` Vatan urushi davrida qizil rang qahramonlik rangi sifatida g`alabaga chaqirgan. Masalan, "Ona Vatan chorlaydi!" nomli plakatni bunga misol qilish mumkin. XX asr rangtasviri o`zida barcha badiiy oqim va yo`nalishlarni mujassam etgan bo`lib, ranglarning ko`p qirraligini an'anaviy va yangi vositalar orqali ochishga harakat qilmoqda.

**Rang va san'atdagi sintez** Rangning sehrli kuchini yana bir qirrasini ko`rib chiqamiz. U turli san'atlarning o`zaro aloqasidan paydo bo`ladi. Guruhlar ichidagi san'at ham birlashishi mumkin. Bu plastik san'at bilan vaqtinchalik san'atning birlashishidir. Plastik san'at guruhidagi sintez me'morchilik asosida amalga oshadi. U ko`pincha rangtasvir, grafika, amaliy san'at yoki dizayn asarini birlashtiradi. Turli guruhlariga kiruvchi san'atlar orasida ham sintez bo`lishi mumkin. Bunga bir necha namunalar keltiramiz. Masalan, tasviriy san'at hayotning turli tuman ko`rinishlarini aks ettirishi bilan birga, musiqa bilan birlashishga intilgan. Musiqaning rangtasvir, grafika va xaykaltaroshlik san'atiga ta'siri musiqani his qilishning turli shakllarining (she'r yozish, musiqa tinglash, ijro etish) rassomlarga ilhom baxsh etib, asar yaratish uchun mavzu berishidan boshlangan. Qadimgi davrlarda yaratilgan tasvirlar va bo`rtma tasvirlarda turli urf-odat va an'analar, shoxlarning ziyofatlari va bayramlari aks bo`lib, unda musiqachilar ham tasvirlangan.

Qadimgi Gretsiya san'atida ham teatr tomoshalari va sport musobaqalarida musiqa chalayotgan musiqachilarni tasvirini uchratish mumkin. Bunday kartinalarni faqatgina relief yoki binolarga chizilgan tasvirlardagina emas, balki tuvaklarga ishlangan rasmlarda ham uchratish mumkin.

Gotik soborda o`tkaziladigan marosimlar odamlarda juda kuchli tassurot qoldirgan. Marosimda ijro etiladigan xor va organning ovozi rangli vitrajlardan o`tuvchi yorug`lik bilan garmonik munosabatda bo`lgan. Bularning hammasi badiiy yaxlitlikni tashkil qilgan.

O`rta asrlarda va Uyg`onish davrida rangtasvir va xaykaltaroshlikda ko`pincha kuylayotgan va nay chalayotgan farishtalarni, bayramlardagi halq kushikchilari va musikachilarini, raqsga tushayotgan yoki volynka, skripka, klavesin, violada musiqa chalayotgan odamlarini tasvirlaganlar.

Qadimgi davrlardan musiqa homiysi Muzaning allegorik tasviri qandaydir musiqa asbobi bilan tasvirlangan.

Musiqa va rangtasvir eng avvalo fikrlar, obrazlar, dramaturgiya, hissiyotlarning mazmunini birlashtiradi. Bundan tashqari kompozitsiya, ritm, garmoniya, dinamika, bo`yoq kabi vositalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada har ikkala san'atning sintezi hosil bo`ladi. San'atdagi xaqiqiy sintez chin mu`jizani yarata oladi.

XIX - XX asrlarga kelib rangtasvirda "musiqa" tendentsiyasi rivoj topdi. V.M. Vasnetsov shunday degan edi. "Mening kartinalarimda hammavaqt musiqa his kilinishini xohlar edim". Rassom A.Savrasov o`z kartinalarida rus tabiatini musiqasini his qilib, tasvirlab bera oldi. Masalan, uning "Qora qarg`alar uchib keldi" nomli asarida bahor musiqasini his qilish mumkin. Unda tomchilar jarangi, suvning shildirashi, qayinlar shoxlarining shovillashi, qarg`alarning g`ovur-g`uvo`rini eshitish mumkin.

Rassomlardan M.Vrubel, M.Chyurlenislar o`z kartinalarida rang va tovush orasidagi o`zaro uyg`unlikni bera olgan. M. Chyurlenis o`z kartinalariga "Prelyud", "Sonata" kabi nomlar bergan.

Chyurlenisning obrazli dunyosi bu orzular, uyg`unlik, fantastikaning go`zal qorishmasi hisoblanadi. Uning "Bahor sonatasi", "Yoz sonatasi", "Quyosh sonatasi", "Yulduzli sonata", "Ilon sonatasi", "Piramida sonatasi", kabi asarlari mavjud. Bu har bir sonataning bo`limlari musiqa terminlari (Allegro, Andante, Scherzo, Finale) bilan

nomlangan. Har bir kartinada aniq kayfiyat, lirik hissiyot hukm suradi. Bu kartinalarda ritm katta rol o`ynagan. Masalan, "Dengiz sonatasi" turli - tuman ritmlarga ega. Unda tulkinlar, kemalar, suvlar, qirg`oqlar ritmi mavjud. Kompozitor A.N. Skryabin o`z asarlarini rangni yorug`lik bilan hamkorlikda toshohabinga yetkazgan. Musiqa va rangli yorug`lik yaxlit obraz yaratgan.

XX asrga kelib musiqa, rang va yorug`likning sintezi fikri juda keng tarkaldi. Masalan, dunyoning ko`pgina shaharlarida kuylovchi, rangli musiqali fontanlar qurilgan. Unda musiqa, suv ritmi va rang bir-birini to`ldiradi. Musiqasiz bu san'at asari o`zining obrazli ahamiyatini yo`qotadi. Avangard yo`nalishdagi bu yangi shakllar rassom va tomoshabinni o`zaro dialogi va aloqasiga asoslangan.

#### **1.4. Kompozitsiya bajarish texnikasini egallash**

Maishiy janrdagi kartina mazmuni, kompozitsiyaning badiiy yuksak yaxlitligi asta - sekin o'z kuchini yo'qota bordi. Buyuk pedagog, rassom D. N. Kardovskiy bularga qarshi murosasiz kurash olib bordi va realizm pozitsiyasida turib ximoya qildi. D. Kardovskiy ham P. Chistyakov kabi tasviriy san'atdagi ardoqli pedagog - rassomlardan edi. V. Efanov, D. SHmarinov kabi ko'plab Rossiya rassomlari uning ustaxonasida yaxshi ta'lim oldilar.

Ko'p yillik pedagogik faoliyat mobaynida qalamtasvir va kompozitsiyadan mukammal o'quv tizimi shakllandi. Kompozitsiya hayot xodisalarini obrazli aks ettiruvchi vosita bo'lib talabalardan ma'lum formatda, oddiydan murakkab eskizlar bajarishga o'tish prinsiplarini qo'ydi. Keyinchalik kompozitsiya nazariyasi, amaliyoti va ularni o'qitish metodikasini asosiy prinsiplarini ishlab chiqishda V. Favorskiy, A. Deyneka, K. YUon, E. Kibrik, A. Alpatov, G. Nisskiy, F. Reshetnikov, D. SHmarinov kabi ulug rus rassomlari o'z hissalarini qo'shdilar. Bularning ichida K. YUon, A. Deyneka, E. Kibrik, M. Alpatovlarning qoldirgan ijodiy va ilmiy nazariyasi tadqiqotlarini alohida ta'kidlab o'tish o'rinli.

Kompozitsiya nazariy asoslarni rivojlantirishda salmoqli xissa qo'shgan rassomlardan yana biri Konstantin Yuondir.

Ulug rassomlarni asarlari misolida kompozitsiya tuzilishini tahdil qilib: kontrast, vertikal, gorizontal, diogonal simmetriya, assimetriya, aylana, uchburchak, muvozanat, ritm yaxlitlik, dinamik, statik holat, yorug, rang koloriti, ko'rish nuqtasi, gorizont, kompozitsiya plani, mahobatlik, dekorativlik kabi tasvir uslublarini ko'rsatib berdi. K.Yuon kompozitsiyani o'qitish metodikasi saviyasini yuqori darajaga qo'yish kerak deb hisoblardi. Har xil mavzudagi kompozitsiya eskizini bajarish jarayonida xomaki tasvir, yorug' va ranglarni har xil holatida perespektiva qoidalarini ishlata bilishni tavsiya qilardi. Hayot tassurotlarini, gavidani turli holati, guruh odamlarni harakatdagi ko'rinishi, tipaj, liboslar, xona, bino burchaklaridan chizgilar chizib, ulardan unumli foydalanishni tavsiya etardi.

Kompozitsiya masalalaridan takomillishtirishga munosib hissa qo‘shgan buyuk rassomlardan biri E. Kibrikdir. U o‘z asarlari bilan grafika san‘atini yuqori cho‘qqilariga olib chiqqan san‘at ustalaridan biridir. U o‘zining «Kompozitsiya masalalariga doir» (1961 y.) kitobida kompozitsiyani tasviriy san‘tdagi ob‘ektiv qonunlarni, kompozitsiyani o‘qitish sohasidagi metodik qo‘llanmadagi kamchiliklarni uqtirib o‘tdi. Kompozitsiya qonun - qoidalarini chuqur bilish, ijodkor ongiga sayqal beradi. Etuk rassomlarning ijodiy tajribasiga va kompozitsiyani o‘qitish uslubiyatiga asoslanib Badiiy Akademiya tomonidan 1960 - 64 yillari nashr etilgan 8 jildli «Shkola izobrazitelnogo iskustva» nomli metodik qo‘llanma tasviriy san‘at manbaini boyitdi.

Tasviriy san‘atda kompozitsiyani rivojlantirish tarixi bilan tanishib, imkoniyat darajasida mavjud fanga tegishli ma‘lumotlarni tartibli ravishda o‘rganib, kompozitsiya nazariyasi xaqida xulosaga ega bo‘ldik.

Mavzuli rangtasvir eng avvalo, tasviriy san‘atning maishiy, tarixiy, batal (harbiy) va mifologik janrlari bilan bog‘lanadi. Bunday kartinalarni «janrli kompozitsiya» deb ham yuritiladi. Janrli kartina kompozitsiyasi g‘oyaviy fikr bilan tasvirlanadi. Har qanday «savodli» joylashtirishga ega kartina ham, biror g‘oyani chuqur hal etmasa, u san‘at asari bo‘la olmaydi.

Kompozitsiya ustida ishlashning barcha jarayonlari bu g‘oyaviy fikrni boyitish, har tomonlama qayta-qayta ishlash va realizatsiya qilish jarayoni hisoblanadi.

Mashhur rassomlarning aytishicha insonni to‘lqinlan-tiradigan va tinchlik bermaydigan qandaydir bir g‘oya tug‘ilgandagina darxol eskiz qilinadi.

Kompozitsiya ustida ishlaganda soxta vazifalardan kelib chiqmaslik va kartinani qandaydir bir mazmuniy geometrik sxemalar asosida qurish kerak. Bunda figuralarni diogonal, aylana, uchburchak asosida qurish va hokazolarni nazarda tutilmoqda. Toki qiziqarli mavzuni topmasdan turib, kompozitsiya bilan shug‘ullanish yaramaydi.



Mavzu deganda rassom o‘ylagan, o‘zining yaratilajak asarida ifodalamoqchi bo‘lgan hissiyot va fikrlar, g‘oyalar yig‘indisi tushuniladi.

Mavzu albatta chuqur bilim doirasida. hayotiy voqealar va tajriba asosida tug‘ilishi kerak, mavzu «dolzarblik»ni ro‘kach qilib, majburiy va soxta, notabiiy holda tanlanmaydi. Agarki, rassom odamlarga aytiladigan ichki yangilik, qandaydir voqeaning zarur va ahamiyatli tomonini ko‘rsatmasa va o‘z qobiliyatiga qarab mavzuga kirishmasa, u asar yaratilmaydi. Kompozitsiyada «g‘oya» va «mavzu» tushunchasi ba’zan aniq holda yoritilmasligi ham mumkin.

Agarki, mavzu topilib va rassom unga qiziqqan bo‘lsa, tarixiy, xujjatli, portret yoki manzara materillarini o‘rganish uchun astoydil ish boshlanadi. Bunday materiallarni har tomonlama chuqur o‘rganish bilangina ijodiy tasavvurda kartina mazmuni yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Tasvir g‘oyasi, mavhum ko‘rinishdagi chiziqlar, shakl va bo‘yoqlarda emas, balki jonli, konkret obrazlarda ifodalanadi. Kartinada personajlarning gavda holati, turishi, ularning ruhiy xolati motivlashtirilgan holdagina tasvir mazmunni jonlantiradi va badiiy obrazga aylantiradi. Har bir realistik asarning zaruriy asosi mazmunli voqeani topish bilan belgilanadi. Mazmunni esa, harakatdagi odamlar soni, ularning joylashishi, gavdaning o‘lchami, ko‘rish nuqtasini tanlash va boshqa shu kabilar belgilaydi.

Bir mavzuning o‘zi turli xil mazmunda yoritilishi mumkin. Masalan, urushga qarshi mavzularda garchi barchasining mazmuni, voqeasi har xil bo‘lsada bir nechalab mashhur kartinalar yaratilgan.

Rassom uchun mazmun darrovgina topilmaydi, balki o‘ylangan mavzuni chuqur va to‘liq ochib berish imkonini beruvchi kompozitsion echim izlaniladi, toki, uning ko‘ngildagidek aniq, tushunarli ifoda topilmaguncha juda ko‘plab qoramalar qilinishiga to‘g‘ri keladi. Mazmun topib olingach esa, shu zahotiy oq kompozitsiya eskizi ustida tinimsiz, zahmatli ish boshlab yuboriladi. Birinchi eskizlar kichik

o'lchamda bo'lgani ma'qul. Asosiy kompozitsion qurilishlarni joylashtirib olish engilroq bo'lishi maqsadida shunday format tanlanadi.

**Eskiz** - bu kartina loyihasi, kartina ustida ishlashning birinchi bosqichi hisoblanadi. Eskizda qog'oz yoki xolstning formati, tasvirni o'lchami, ko'rish nuqtasi, gorizont balandligi aniqlab olinadi. Eskizning turli variantlarida echimning eng maqbul, tushunarli ifodasiga erishish lozim, ob'ektlar predmetlarni ishonarli joylashtirish, figuralarni guruhlashtirish, g'oyaviy markazni topish, tomoshabinni asosiy e'tiborini tortadigan bo'lishi lozim. Har bir figura yoki detal o'zini umumiy g'oyasi ichida alohida ahamiyatli o'rnini topishi va barcha vaziyat mavzuni ochib berish uchun hizmat qilishi kerak.

Tasviriy san'atda teatr yoki adabiyotdan farqli o'laroq faqat bir moment, yoki bir zumlik on tasvirlanadi. Harakat konsentratsiyasi yagona tasviriy momentdagi kompozitsiyaning qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Vaholanki, obrazli echimning kuchi vaqtning ma'lum bir narsasini idrok etish bilan bog'liq bo'ladi. Kartina kompozitsiyasi shunday tuzilishi kerakki, tomoshabin undagi voqeaning davomiyligini va bu sahnada nima voqea bo'lib o'tganini va nima bo'lishini his qilsin. Mana shu holdagina kartinada hayot harakati beriladi, u quruq va jonsiz, harakatsiz bo'lib qolmaydi.

Eskizda kompozitsion echim hal etilgach, (personajlarning harakati va holati, ularning psixologik xarakteristikasi, kiyinishi, vaziyati, va boshq) kartina uchun **etyud bajarishga** o'tiladi. Bu ishni yaxshiroq bajarish uchun, kartina holatini yoritish maqsadida alohida bir tipaj topish zarur bo'ladi. Qoralama va etyudlarni albatta kartina voqeasi tasvirlanishiga mos holdadagi vaziyat va yoritilganlik sharoitida bajarilishi shart.

Masalan, M.E.Repin 1878 yilning yozida birinchi marta «zaporojellik kazaklarnig turk sultonining asir bo'lishga undovchi xatiga javob»i bilan tanishib qoladi. Kazaklarning bu javobidan rassom qattiq xayratga tushadi. Uni erkin, hech qachon xech kim tomonidan zabt etib bo'lmagan Zaporoje Sechi yurtining

qahramonona ruhiyati qoplaydi. Va u kartina yozish ishtiyoqi bilan yonib yuradi. Birinchi marta Abramsevada kartina mazmunini qoralamasini qiladi. Unda erkin, kulishayotgan kazaklar obrazi ko'rsatiladi. So'ng biroz vaqt o'tgach birinchi rangtasvir eskizini chizadi. Barcha sahnani rassom tomoshabinga yaqinlashtiradi, asosan kazaklarning yuz ifodasi va xarakterlariga, ularning xarakterli qiyofalariga e'tiborni tortadi. Orqa planda quyosh yog'dusida yaltirab turgan Dnepr daryosini tasvirlaydi. Voqea vaqti major, tasvirlanayotgan voqeaga mos hayotiy-quvonchli, tantanali ifodasini topgan.

Bu eskiz faqat ijodiy ishning boshlanishi edi. Repin tarixni, davrni, tevarakat-rof muhitni chuqur o'rganmasdan turib ishni davom ettirishni tasavvur ham qila olmasdi. Shu bois, shogirdi yosh V.Serov bilan 1880 yili Ukrainaga Zaporozhe Sechi joylashgan erga keladi.

Repinni kazaklarning xarakterli tiplari qiziqtirardi. Ukrain manzarasi va asosan ukrain milliy xarakteri belgilari: tabiiy ongi, jasurlik, o'ziga ishonch, va yumor. Repin deyarli barcha Zaporozhe cherkovlariga bordi, ularni ichki ko'rinishi va buyum-anjomlarini chizdi, shuningdek, kazaklarning bayroqlari, miltiq, qilichlari, kiyinishidagi harbiy farqli belgilarini o'rganib chiqdi. Xomaki rasmlar bilan bir necha albomlarni to'lg'azadi va shundan keyingina navbatdagi ishga kirishadi.

Repin birinchi variantidagi rangtasvir eskizdan farqli holda xolstning formatini kattalashtiradi. Voqeadada qatnashuvchi shaxslar sonini ko'paytiradi va ayrim figuralarni butunlay olib tashlaydi. Kazaklarni butun galasi bilan yaxlit biroz orqaroqqa oladi va kartinani mazmunli maishiy ko'rinishda emas, balki qahramonona mazmundagi tarixiy kartina sifatida ko'rsatishga urinadi.

Kartina ustida ishlash jarayonida Repin o'zining qahramonlari portret-xarakteristikasidagi kamchiliklarni sezib qoladi va 1888 yili Zaporozhe kazaklarining avlodlari yashayotgan Kubanga boradi. Qariya kazaklarning yuzidagi chuqur ajin va tirtiqlarida u eng avvalo donolik, boy hayotiy tajribalarni va qahramonona harakatlar qila oluvchi halq timsolini ko'radi. Masalan, oddiygina, kichik bir stansiyada

yashovchi Vasiliy Oleshkoda u, dono va jasur zaporojeliklar atamani Ivan Serkoning xarakterlovchi belgilarini ko‘radi va o‘z o‘rnida kartinaga kiritadi va ko‘plab naturadan qilingan etyudlarni do‘stlari tanish-bilishlari ichidan o‘ziga kerak bo‘lgan obrazlari uchun qiyofalarini topib tasvirladi va 1891 yili kartinani tugalladi.

V.I.Surikov bejiz aytmagan: «Men avvalo qadimiy ustozlarning kartinalaridagi kompozitsiyada hamma narsani kuzatdim, shundan so‘ng uni ko‘rishga o‘rgandim».

## **II. BOB**

### **2.1. Tasviriy san'atda maishiy janrida**

#### **kartina bajarish texnologiyasi**

Tabiat o'zining boy rangi va poyonsiz tuslari bilan bizni lol qoldiradi. Avval qog'ozga rasm kompanovka qilinadi va uni ishlash bosqichlari rangda amalgam oshiriladi. Bundan tashqari guash, moybo'yoq, akvarel va qalamda kompazitsiyani ishlash mumkin. Kompazitsiya avvalo ma'lum bir mavzuni ishlash jarayonida yuzaga keladi. Odamning har bir harakati alohida ahamiyatga ega. Masalan; tabiatni asrang mavzusida gi kompazitsiya mavzusida bir qancha elementlarga e'tibor beriladi. Avval och ranglarda yengil rangda so'ng esa to'q rang bilan chiziladi. Rangtasvir mashg'ulotlarni boshlashdan avval quyidagi asbo uskunalarni tayyorlab olish kerak. Bo'yoqlarni aralashtirishda palitradan foydalanish qulaydir. U har xil materialdan yasalgan bo'lishi mumkin. Shuningdek, plastic likopcha va oq qalin qog'ozdan foydalanish ham mumkin. Xullas maishiy janrda ishlash jarayoning o'z qonuniyatlari mavjud bo'lib bu ishni tartib bilan olib boorish talab etiladi. Ketma-ketlik tartibini anglagan holda bajarilgan ish mahsuli muhim ahamiyatga egadir. Ishni nimadan boshlab uning o'rtasida qanday talablarga javob berish va qay o'rinda tugallash kerakligini yaxshi bilmoq zarur.

Rang tasvir bajarilishi zarur bo'lgan talablar mahsulidir.

Naturada mujassam umimiy yorug' soya, rang tuslar va mushtarak ranglardan yorug' soyali, rang tusli uyg'unliklar mavjud bo'lgan katta bo'laklarni aniqlash.

Yorug' soyalar rang tusli uyg'unliklar katta bo'lagi yorug' soyalar va rang yo'nalishlari ayrim narsa sirtiga ranglar bilan mutassil ishlov berish.

Umumlashtirish butun tasvurning yaxlitligiga erishish kompazitsiya markazini ajratib ko'rsatish rang tasvirning to'laqonli ifoda etilganligini yorug' soya rang tus kontrastlari naturaning asosiy rag bo'laklarga uyg'unliklari bilan belgilanadi. Avvalo biz kompazitsiyani ishlashdan avval oldin bizga g'oyani tanlab olishimiz kerak bo'ladi. Ma'lum bir hayotiy mavzu yuzasidan kompazitsiyani tanlab uni eskizini

ishlab chiqamiz. Ma'lum bir a4 formatga mayda ishlarni va kompazitsiyaga qatnashuvchi har bir detal va odamlarning joylashish tartibi kartinada joylashishi to'g'ri bo'lish kerak. Uning atsh uchun mavzu bo'lishi kerak. Chizib bo'lingan kartinani kompanovkasi tuzilib yordamchi chiziqlar o'chirilib asosiy chiziqlar o'chirilib chiqiladi. So'ngra undan keyin biz ranglash va qolipga kiritish kerak bo'ladi. Ranglar tanlanishiga katta ahamiyat kasb etadi. Shulardan xulosa qilib aytish mumkinki, avvalo kartinani ranglash uchun uni oldindan kartinani tugatilishini oldindan tasavvur qila olish kerak bo'ladi. Uning uchun sizda har tomonlama mukammal va to'liq tarzda chiza olish kerak bo'ladi. Qachonki siz shu narsani his qilasiz sizda rassomlik xislati mavjud bo'ladi. Kompazitsiyada odamlarning xarakterini shunday tavirlash kerakki, uni rasmini ko'rib uni hayotda qanday odam ekanligi ma'lum bo'ladi. Ko'p hollarda ranglarning tanlashilish va qanday bo'lishi rassomning o'zi dunyo qarashiga bog'liq bo'ladi.

## 2.2. Tabiat va rangtasvirdagi ranglar

«Rangtasvir – tasvirlanayotgan kartinadagi barcha bo'laklar orasidagi munosabatlarni, ularning yorulik kuchini va har bir bo'laklarni o'zaro taqqoslash natijasida, bo'yoqlar va nozik farqlar kuchini uzoq vaqt kuzatish orqali borliqni to'laqonli ifodalash mumkin», – deb aytgan edi K.F.Yuon.

Manzara etudlarida, masalan, osmon va suvni tasvirlashda asosan ranglarning och-to'qligi va to'yinganligi orqali munosabatlarni ko'rsatishga erishiladi. Turli-tuman boshqa faoliyatlarda (portret, natyurmortda) tus va ranglar kuchining aniq munosabati haqqoniy tus munosabatlar qurilishini aniqlaydi.

Ranglarning tabiatda qanday hosil bo'lishi va tarqalishi muammosi qadimdan olim va rassomlarning diqqatini tortgan.

XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L. Gelmgolts rangshunoslik nazariyasida muhim yangilik yaratdi. Ko'p yillik tajribalar asosida xromatik ranglarning uchta asosiy alomati – rang-tusi, rangning och-to'qligi va to'yinganligi asosida turkumlash zarurligini ko'rsatdi.

Kundalik turmushimizda, hayotiy tajriba asosida ma'lum buyum va narsalarning o'ziga xos ranglari ongimizga singib boradi (paxta – oq, o'tlar – yashil, osmon – havorang, dengiz – ko'k va boshqalar). Bu ranglar buyum va narsalarning shaxsiy rangi hisoblanadi. Ammo buyum va narsalardagi asosiy rang turli yorulik ta'sirida o'zaro o'zgaruvchan bo'ladi. Qarama-qarshi ranglarning ta'sirida buyumning rangi turlicha ko'rinadi. Qizil muhitdagi kulrang buyum ko'kimtir-yashil tusga kiradi, yashil muhitda – pushtisimon, sariqda esa – ko'kimtir bo'ladi.

Qizil qoozdan doira shaklini qirqib olib, kulrang qooz ustiga qo'yilsa, kulrang qooz yengil yashilsimon rangda bo'lib ko'rinadi. Agar qizil doiraning o'rniga yashilni qo'ysa, kulrang qoozda qizish tus hosil bo'ladi. Har bir holatda ham qarama-qarshi ranglarning tuslari (qo'shimcha) hosil bo'ladi. Shu sababli ham tabiatda «xira» neytral ranglar mavjud emas. Hatto, buyumdagi soyalar ham nozik yengil ranglar

bilan to'yingan. Yonma-yon bo'lgan qo'shimcha ranglar o'zining yorqinligini kuchaytiradi (qo'shimcha va qarama-qarshi ranglar – bu qizil va yashilsimon — havorang, zaraldoq va havorang, sariq va ko'k, sarish-yashil va binafsha rang, yashil va qirmizi). Buyumlar rangi kuzatuvchidan uzoqlashgan sari ham o'zgaradi (havo perspektivasi).

Yuqorida sanab o'tilgan ta'sirlar natijasida buyumning rangi, rangning tusi bo'yicha ham, yoruligi va to'yinganligi bo'yicha yoki uchala xususiyatlar bo'yicha bir vaqtda o'zgarishi mumkin. Bunday o'zgargan rang endi buyumning asosiy rangi emas, balki u shartlidir.

Manzarani tasvirlash qonuniyatlari to'risida Florensiyalik buyuk rassom Leonardo da Vinchi o'z risolalarida ko'z oldida turgan manzarani to'ri tasvirlash mahorati qonuniyatlarini bayon qiladi, shuningdek, tasvirda yorulik va soya mutanosibligi qoidalarini batafsil tushuntirib beradi. Tabiatning shunday bir ajoyib qonuniyatiga e'tibor qiladi: olis masofadagi narsa nafaqat kichrayib, balki rangi ham birmuncha xiralashgan tarzda ko'rinadi. Shunga asosan, ulu rassomning nazariyasiga ko'ra, manzarani tasvirlashda uzoqroqdagi narsalarning shaklini kichraytirib chizish bilangina kifoyalanmaslik kerak. Oldinda, birinchi ko'rinishda turgan narsalarni o'ziga mansub tabiiy bo'yoqda tasvirlash, orqaroqdagi manzarani esa yengilgina xira ko'rinishda, nim havorang bo'yoq bilan tasvirlash zarur. Leonardo da Vinchi mo'yqalamiga mansub sehrli manzaralarda ana shu qonuniyat yaqqol aks etadi.

Buyumlarning shakl va ranglarini haqiqiy va tabiiy holatda ko'rish va qabul qilish odatini ruhshunoslar odatiy ko'rish deb atashgan. Insonlar buyumlarni ko'rishda va qabul qilishda nafaqat turli kattalik va rang dolarini ko'rishadi, balki narsalarning haqiqiy konstruktiv tuzilishi va rangini ham shu qatorda qabul qiladi.

Tajribali rassomlar yorulik ranglari ta'siridagi tabiatda sodir bo'layotgan nozik o'zgarishlarni ham bo'yoqlar vositasida mohirona tasvirleydilar.





Sh.Abdurashidov. Yoshlik.

Ajoyib rus rassom-pedagogi P.P.Chistyakov bu borada: «Ranglarni aniq ko'rish uchun, tabiat qonuniyatlarini bilish kerak. Bu bilim esa ko'rishga yordam beradi», – deya qat'iy maslahat bergan.

Shu yerda ranglar orqali insonning xarakterini tasvirlash xususiyatlari haqida maslahatlar keltiramiz. Sh.Dunasariy o'z risolasida inson qiyofasiga berilgan ranglar orqali uning xarakterini bilish yuzasiga fikrlar keltiradi.<sup>1</sup> Agarda yuzi qoramaiz rangda bo'lsa, qo'rqqoq va am-anduhga botgan bo'ladi. Yuzi qizil rangda bo'lsa, mard va bisyor azabnok bo'ladi. Yuzlari oqish rangda bo'lsa, ojiz va kamquvvat bo'lishi mumkin. Olovday qip-qizil rangda bo'lsa, u jinni sifat bo'ladi. Agarda yuzi qorayishga moyil sariq rangda bo'lsa, bemor va behad ranjga botgan bo'ladi va biroz qizaruvchan rangda bo'lsa, sharm-hayoli bo'ladi.

---

<sup>1</sup>Shamsiddin Dunasariy. Odamnibilishilmi. Toshkent: «Yozuvchi», 1994. 12–13-b.

Manzara etudida yechiladigan muhim vazifa – turli ob-havoda, kunning istagan vaqtini, yoritilgan holatini tasvirlashdir. Professional tilda buni umumiy tus va rang holatini ko'rsatishga aytiladi. Xohlagan etudning rang qatori faqat narsalarning ranglaridagi tus va rang munosabatlariga mos bo'lmasligi kerak. Etudning rang farqlari albatta naturaning yoritilgan holatini hisobga olib qurilishi zarur.



Manzarada kenglik.

Bulutli kunda ko'katlar rangi ancha quyuc (qoramtir) va kam to'yingan bo'ladi. Qosh qorayganda hamma narsalar to'qlashadi, qizil, zaraldoq va sariq ranglar to'yinganligi jihatidan xiralashadi, yashil bilan zangori rang esa faollashadi. Shuning uchun bunday holatlarni hisobga olmasdan manzarani tasvirlab bo'lmaydi. Kunning istalgan vaqtida yoki turli ob-havo sharoitida tasvirlangan etudlar, umumiy tus va rang jihatdan bir-biridan farq qilishi lozim.

«Manzarada, – deydi R. Falk, – asosiysi – havoiiy muhitning rangli holatidir».

Manzara ko'rinishlarini yuqori yoki past darajada yoritilgan holatini tasvirlash uchun to'liq diapazonli och-to'q, yorqin va qoramtir bo'yoqlardan rassom har doim ham foydalana olmaydi. Ishni boshlashdan oldin rassom etudda naturaning eng yorqin va intensiv qismlarini qanchalik yoru va rang kuchlariga ega ekanligini aniqlaydi. Quyoshli kunda etud bajarishda palitradagi yorqin va jozibali diapazonini to'liq ishlatadi. Kechqurun yoki bulutli kunda etuddagi rang munosabatlari to'qroq va kam to'yingan bo'yoqlar bilan ifodalanadi. Rangtasvirchi shunday qilib tus va rang ko'lamini saqlab qoladi.

Manzara etudining yoritilishi holatini puxta o'rganish uchun bulutli, quyoshli kunda, yoz va qishda aynan bir mavzuni tasvirlash juda foydali. Qator bajarilgan etudlarni solishtirib, manzaraning turli holatini jozibali xususiyatlarini sezish mumkin: barcha etudlarda eng yorqin va ravshan dolar palitraning yorqin to'yingan bo'yoqlarida tasvirlangan.



**Manzaraning holati.**



### 2.3 Moybo'yoqda kartina ishlash texnologiyasi

Moybo'yoqda tasvirlarni ishlash rassom uchun ham, endi o'rganayotgan talaba uchun ham juda qiziqarli mashg'ulotdir. Lmmo bu mashg'uLotning jiddiy Qiyinchiliklari ham mavjud bo'lib, u moybo'yoq rangtasvir -gexnologiyasi bilan ham bog'liq. Chunki moybo'yoq bilan ishlash ma'lum tayyorgarlikni talab etadi. Ularga bo'yoqlarni tayyorlash, ish uchun sath (mato)ni tortib tayyorlash, uni qoplama (grunt) bilan yopish, mo'yqalamlarni tanlash, eritgichlarni tanlab olish kabi zarur tadbirlarni kiritish mumkin. moybo'yoq tasvirlar ishlashni o'rganish natyurmortlarni chizib mashq qilish orqali o'zlashtirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Moybo'yoqli natyurmort rangtasvirini ishlash jarayonining ayrim gomonlarni akvarel texnikasiga o'xshash. Chunki bunda ham avval qalamtasvir chizib olinadi. Agar suvbo'yoqda ishlash uchun tasvir mukammalroq, mayda detallari bilan batafsil chizib olinsa, moybo'yoqda ishlash uchun esa chizmatasyir umumlashtirilib eng asosiy narsalar aks ettiriladi. Buning sababi moybo'yoqda ishlash jarayonida batafsillik mo'yqalamda ham bajarilishi mumkinligidandir, Moybo'yoqda biror rangni ochlashtirish uchun unga oq rang kerakli darajada qo'shiladi. Shunisi ham borki oq. rang qo'shilgach bo'yoqning yorqinligi ma'lum darajada kamayadi. Buni o'quv mashqlarini bajarish jarayonida albatta hisobga olish lozim. Akvarel texnikasi kabi jihatlardan biri ish jarayonini asosiy uzoq mudda'gli vazifani boshlashdan avval ranglavha, chizmalavhalar ishlab olinishidir. Shunda bo'lajak rangtasvirning asosiy xususiyatlarini tajriba qilib ko'rib o'rganish, asosiy ishda uni qo'llash mumkin bo'ladi.

Moybo'yoq tasvirlarini ishlash uchun maxsus ashyolardan foydalaniladp. Ular romga tortib tayyorlab, qoplama tortib olingan (gruntlangan) mato, moybo'yoqlarning kerakli xillari, bo'yoqtaxta (politra), mo'yqalamlarning turlicha katgalikdagi xillari, «mastixin» va eritgichlardan iboratdir.

Romga tortilgan mato qanday tayyorlanganligi tasvir sifatini belgilaydigay omillardan biridir desak xato bo'lmaydi., Uning qonlamasi (grunti) ikki xil tarzda

tayyorlanishi mumkin. Biri moyli qoplama bo'lib u quyidagichadir: 5 foizli elim (jelatin, baliq yoki duradgorlnk elymi) aralashmasi shunga teng hajmdagm bo'rga qo'shiladi. U bilan mato sathi qoplanadi. Bir marta surtilganlan so'ng qoplama bo'yoq qatlami tayyo[»lab olinadi. U quyidagi tarkibda, ya'pi - maxsus oqartirilgan (ofgobda toblangan) rashtasvir yot, quruq oq bo'yoq kukunidan qo'shib tayyorlangan aralashma bo'ladi, Yog' va kukunning nisbati shunday bo'lish kerakki u tayyor, maxsus idishga solib chiqariladigan moybo'yoqlardan euyuq bo'lmasin. Shuida uni bemalol matn» sathiga «mastixi» bilan tokis qilib surgib chiqish mumkin bo'ladi. 1-2 hafta quritilgach g'adir-budir erlari qumqog'oz bilan yaxshilab tekislapodi va skipidar aralashtirilgan moyli qoplama yassi, katta mo'yqalam («fleyts») bilan tekis qilib bo'yab chiqiladi. Bunday usulla tayyorlanaligan mato 2-3 oy mobaynida o'qitiladi. U saqlangan joy iliq va yorug' bo'lishi shart.

«Elimli qoplama» deb yuritiladigan qoplamaning ikkinchi xili quyidagicha tayyorlanadi. 1 l. Suvda 50-60 gr. jelatin eritiladi va unga 15 gr. glitserin qo'shiladi. U matoga 1<sup>2</sup> marta surtiladi. Birinchi marta surtilgani qurigach qumqog'oz bilan mato usti tekislanib olinadi, so'ng ikkinchisi surtiladi. Shundan so'ng elim aralashmasi bo'r va oq bo'yoq kukuni bilan teng nisbatlarda 40 S darajali issiqda eritiladi. Agar uning garkibi quyuk bo'lib qoll-udek bo'lsa, o'Ts1a elim aralashmasidan qo'shiladi. Bunday qoplama 2-3 marta qavatma-qavat qilib surtiladi. Ular oralig'ida qurishi uchun ma'lum vaqt bo'lishi shart.

Qoplamalar yana ma'lum rang tusida ham tayyorlanishi mumkin. Ular ko'proq ijodiy ishlarni bajarishda va kompozitsiya yaratish jarayonlarida qo'l keladi. Moybo'yoqda o'quv-mashqlarni bajarishda rang xillaridan ham unumli foydalayaish galab egiladi. Vazifalarni ishlaganda juda ko'p rang xillaridan bilib-bilmay ishlatish yaxshi samara bermaydi.

Tabiagda ettita asosiy rang (bo'yoq) borligi ma'lum. Ular qizil, iorag'lji, sariq, yashil, havo rang, ko'k, binafsha ranglardir. Bo'yoq aralashtiriladigan taxtada (politrada) bo'lishi juda -zarur rang xillari esa qizil, sariq, ko'k bo'yoqdir. Chunki ularni boshqa qolgan asosiy rang-tuslar vositasida hosil qilib bo'lmaydi. Bularning

aralashmasidan juda ko'p, deyarli barcha ranglarni chiqarish, hosil qilish mumkin. Ulardan hatto qora rang tusini ham topish mumkinligi sir emas. Faqat qaysi rangni bir-biriga qancha miqdorda aralashtirishni bilish kifoya. Buning uchun esa albatta tajriba va uquv bo'lishi kerak.

Shuni ham ta'kiddab o'g'ish kerakki tabiatda absolyut oq va absolyut qora ranglar mavjud emas. Ularning barchasi qandaydir bir rang tovlanip turadi. Masalan, qoraning jigarrangga, ko'kka, yashilga moyil ekanligini ko'rishimiz mumkin. Oq rangning turli nozik tushlarga moyilligi ham tabiiy. Bunday rang va tushlarning hamda ularning to'q-ochliklarni tonib tasvirlash uchun moybo'yoqda ishlash texnikasi juda qulaydir. Shu imkoniyatlarning kengligi bilan u boshqa bo'yoq turlaridan ajralib turadi.

Moybo'yoq texnikasida rangtasvirlar bajargand.1 mo'yqalamlarning qanday turlari va o'lchamlardagilarini ishlatish ham muhimdir. Ularni tanlay bilish ko'p foyda keltiradi. Ma'lumki natyurmortlarni, katga ishlarni bajarishda yapaloq va dagal mo'yqalamlarni qo'llash ish sifatini, ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Moybo'yoqlarga suyultiruvchi, erituvchi vositalar qo'shmo ishlatiladi. Ular moyli va moyi kamaytirilgan bo'linshp mumkin. Moyliroki bo'yoqni sekin qurishi uchun yaxshi vosita bo'lib, u bila;t foydalanilgan paytda ranggasvir sekin quriydi. Shu sababli uaoq muddatda bajariladig'ap tasvirlarni ishlashda qulaylpk yaratadi. Bunday eritgichlarni ba'zan lak ham aralashtirib ishlatish mumkin, shunday qilinganda ishning bo'yoq qatlami tezroq quriydi va bo'yoqni moyi matoga shimilib ketishining oldi olinadi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, moybo'yoq texnikasida rang qoriladigap maxsus taxtacha (politr)piyg yuzasid.1 bo'yoqlarni qanday joylashtirish masalasi ham muhim. Unday bo'yoqlar issiq-sovuq ranglarga ajratib, shu bilan birga to'q-ochligiga qarab ajratib joylapgimlilishi mumkin. Oq bo'yoq odatda o'rtada ranglar qatorning boshlanishida bo'ladi. Agar har safar bir xil joylari turli, rassom shunga o'rganadi va kerakli bo'yoqni darrov topib ishlatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mombo'yoqda tasvirlar gpilashnmng juda ko'p o'rganilishp kerak bo'lgan tomonlari bor. Ularnmng barchasi ko'n mashk, qilish orqali o'rganib olish imkonipi beradi. Tajriba nazariy va amaliy tomondan muntazam mashq qilish natijasida oshadi. Bunda maxsus adabnyoglarni mutolaa qilish ham yaxshi yordam beruvchi vositalir.

### ***Rangtasvir texnikasini egallash***

O'quvchilar birinchi bosqichdanoq akvarel texnikasida ishlashni o'qituvchi rahbarligida boshlang'ich yarimyillik davridayoq o'rganishni boshlaydilar. Kasbxunar kollejlari va oliygoh talabalri o'quv dasturlarida talabalardan rangshunoslikni ilmiy negizlarini egallashni , rangtasvirda ishlatiladigan ashyolarning xususiyatlari va ularni samarali ishlatish yo'llarini chuqur bilishni talab etadi. Shuning uchun o'quv dasturlari amaliy mashg'ulotlar bilan bir qatorda nazariy bilimlarni, ijodiy imtixonlar vaqtida esa amaliy vazifalar ko'rigidan tashqari, og'zaki so'rovni ham nazarda tutadi.

Rangtasvir nazariyasi va metodalrini o'rganishda maqsad va vazifalarni oldinga qo'yib, mukammal o'rganib borish lozim. Talabalar auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari uyda ham bir qancha vazifalarni mustaqil bajarishlari lozim bo'ladi. Natyurmortning qalamtasvirini bajarishda qo'yiladigan talablar, narsalarning xajmli shaklini tasvirlashdan iborat bo'lsa, bo'yoqlar bilan tasvirlashda esa, uning qanday materialdan ishlanganligi, hajmdorlik, yorug'-soya, tusi ham rang vositalari orqali ifodalanadi. Qalamtasvirda biz narsa va buyumlarni faqat ochto'qligini ko'rsata olar edik, rangtasvirda esa ranglar butun majmuasi va barcha sifatleri bilan namoyon bo'ladi. Ya'ni bo'yoqlar bilan tasvirlashda narsa-buyumlar o'zining aniq ranggi bilan emas, balki atrofidagi boshqa turli ranglar bilan bog'lanishda ko'zga ko'ringan ranggi ifodalanadi. Ko'zimiz ko'ra oladigan tabiatdagi barcha ranglarni shartli ravishda ikkita axromatik va xromatik ranglarga bo'linishi va ularga qaysi ranglar kirishini biz yuqorida aytib o'tdik. Ranglarni tabiiyligini tasvirda bajarish ancha qiyin ish. Bunga jiddiy mehnat, nozik did va zo'r mushoxada orqali erishish mumkin.

Rangtasvir ishlash jarayonida ranglar munosabatini to'g'ri aniqlash bilan birga, shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, biz faqat oddiy rang dog'lari bilan emas, balki aniq bir shakl ustida ham ish olib borayapmiz. Ranglar munosabatini izlashdan maqsad, to'g'ri topilgan rang tuslari bilan naturani, uning xajmli shaklini to'g'ri topish demakdir. Agar rang buyumning fazoviy joylashuvi, materialligi va aniq shaklini ifoda etmas ekan, u tasvirda o'z ma'nosini yo'qotadi. Och va to'q, rangli va rangsiz bo'yoq surtmalari ma'lum bir buyum shakliga va ob'ektga tegishli bo'lsagina, materiallik, ranglar uyg'unligi va koloritni yaratadi.

Manzaraning fazoviy kengligini masalan, faqat havo perespektivasi tufayli ranglar o'zgarishini ko'rsatib beruvchi rangli dog'lar emas, balki yer yuzasida joylashgan narsalar va ob'ektlar: daraxtlar, qurilishlar, to'g'ri to'rtburchakli va notekis maydonlarni o'lchamlari va chiziqlar aniqligi ranglarda o'zgarib, manzaraning fazoviy uzoqlashishini yaratadi. Tog'larni, masalan, ikkinchi va olis ko'rinishda umumiy rang dog'larida ifoda etish mumkin emas. Rang bilan ularning rel'efini va o'simliklar tuzilishini tasvirlash kerak.

Ishning yakunida natyurmort, manzara yoki portretning u yoki bu joylari kerakli yorqinlikni olmay qolgan bo'lishi mumkin yoki aksincha, haddan tashqari tusi va ranggi bo'yicha kuchli, umumiy rang tusidan "ajralib" ko'rinishi mumkin. Yoritilgan joylar tusi bo'yicha o'ta keskin bo'lib, qog'oz yoki mato yuzasidan "chiqib" ketishi mumkin. Ba'zan soyali joylar sezilarli mayda detallarga ega bo'lib, maydalashib ko'rinadi. Bu holatlarning hammasidan ham umumlashtirish masalasi hal etiladi: mayda bo'laklarning keskin chegaralari mayinlashtiriladi, buyumlarning rangdorligi kuchaytiriladi yoki xiralashtiriladi, keskin tuslar ochlashtiriladi yoki to'qlashtiriladi.

Bu borada o'quvchilar faqat narsaning o'ziga qarab rasm chizishdagi malakalari oshib bormasdan balki san'atimiz namoyondalari ishlagan san'at asarlari namunalari bilan tanishib boradilar.



Masalan: biror sabzavot va mevalardan tashkil topgan natyurmortni o'quvchilar chizayotgan bo'lsalar shunga mos yoki shu mavzuda bor narsalardan chizilgan O'zbekistonlik rassomlarning asarlaridan rangli reproduksiyalarni o'quvchilarga ko'rsatish samaralidir. Masalan, rassomlar A.Abdullaev E.M.Kovolevskiy, Z.Inog'omov, Yu.I.Yelizarov, M.Nabiev va boshqa rassomlarning asarlari reprodaksiyalari shunga qo'l kelishi mumkin. Repraduksiylar xayoldan va narsaning o'ziga qarab rasm ishlashda o'quvchilardan bevosita kuzatishni, predmetlar, ekran vositalari, kitobga ishlangan illyustratsiyalar, hujjatli materiallar, kompyuter texnikasi vositalaridan keng foydalanishni talab etadi va bular badiiy obrazni yaratishda o'quvchilarga katta yordam beradi. Tasviriy sanatning barcha turlarida rang muhim ro'l o'ynaydi. Rang gammasi deganda tasvirlarni ishlash jarayonida qo'llanadigan tus va ranglarning o'zaro muvofiq kelishini tushinamiz. Bu xolatni quyidagi jonli misol bilan izohlasak o'rinlidir, masalan, musiqa sanatidagi ovozlar ma'lum notalar yordamida belgilanadi va foydalaniladi. Ular o'z holicha aloxida-aloxida bir-biri bilan uyg'unlashtirilmay chalinsa ma'nosiz uzuq-yuluq ovozlardan iborat bo'lib qoladi. Agar ma'lum bandlikda va tar tibda uyg'unlashtirib chalinsa yoqimli bo'lib eshitiladi .

Rassomlar ko'p asrlar oldin narsalarning ranglari muxit Bilanyoritilish sharoitlari bilan, o'zgarishlarini bilishgan. Uyg'onish davridan boshlab rassomlar rangtasvir haqida turli risolalar yozib, chiziqli va havoiiy perspektiva qoidalari, naturaning ranglardagi ko'rinishida muxitni o'rni (Leonardo da Vinchi, A.Dyurer, D.Konsteb1, D.Reynolds) to'laqonli bayon etilgan. Shunday bo'lsa ham bu rassomlar plenerli manzarani kashf etmaganlar. Ma'lum bo'lishicha plener rangtasviri XIX asrning ikkinchi yarmida rassomlar tasvirni tusli va rangli ko'lamini saqlagan holda munosabatlar metodi bilan ishlashni boshlagan vaqtda paydo bo'lgan (V.D.Polenov, I.I.Levitan, K.A.Korovin va boshqalar).

Manzara rangtasviri bo'yicha birinchi mashg'ulotlar manzaraning asosiy ob'ektlari orasidagi ranglar farqini tasvirlashga qaratilgan qisqa vaqtli etyudlar

bo'lishi kerak (bino silueti, osmonning umumiy dog'i er yuzining umumiy tekisligi, daryoning oynali yuzining bir xildagi rang dog'i va hakazolar).

«Etyudni tasvirlashda osmonga nisbatan suv va er tusining munosabatlarini birdaniga inobatga olib tasvirlash kerak», -deb yozgan K.A.Korovin.

I.I.Levitan yosh rassomlarga maslahat beradi: «Biz hali manzaradagi er, suv, osmonni umumlashtirish, bir-birini bog'lash ko'nikmalarini to'laqonli egallamaganmiz: hammasi alohida, barobar esa yaxlit bu jaranglamaydi. Axir eng muhimi va murakkab – manzarada suv, er va osmonning to'g'ri rangli munosabatlariga erishishdir».

Misol tariqasida N.N.Ge «Bulutlar», «Dengizda quyosh botishi» va A.E.Arhipovning «Shimoliy manzara» asarlarini ko'rishimiz mumkin. Rassom N.N.Ge osmon, suv va er munosabatlarini, old ko'rinishdan ichkari tomongacha ranglarning perspektiv o'zgarishlarini nozik ifodalagan. A.E.Arhipovning etyudi esa betartib to'q rang surtmalari bilan osmon, erning asosiy munosabatlari ko'l bo'yidagi katta bo'lmagan omborxonada tasvirlangan. Bunday dastlabki bir seansli etyudlarda naturaning yirik rang munosabatlarini astoydil tasvirlashi talabani manzara etyudidagi rang tuzilishi uning materiallik va fazoviy sifatlarini, hamda tabiatdagi turli yoritilish holatlarini mahoratli yaratish malakalarini rivojlantiradi.

Yoritilish holatini hisobga olib umumiy ranglar munosabatini qisqa vaqtli etyudda bajarish bo'yicha biroz tajribaga ega bo'lgach ikki-uch seansga mo'ljallangan mashqlarga o'tish mumkin. Uzoq vaqtli etyudlarni ishlash jarayonida ham dastlab asosiy rang munosabatlarida (asosiy dog'lar), yaxlit surtmalarni qo'llash, so'ng old, o'rta ko'rinishdagi mayda-bo'laklarni bajarishga o'tiladi va xakazo.

Tajribasiz rassom uzoqda joylashgan (100-300 m) ko'katlar rangini xuddi oldida turgandek ko'radi. Vaholanki, yiroqdagi rang mutlaqo boshqacha ko'rinadi: yashilning nozik ranglari va uning to'yinganligi uzoqlashish ta'sirida albatta o'zgaradi. Tajribasiz rassomlarning asosiy kamchiligi: ishni yaxlit ko'rmaslik, mayda shakllarni tasvirlash bilan chag'ib ishni samarali yakunlay olmaydilar.

Tabiatdagi narsalarning ranglari yoritilish kuchi va spektr birikmalariga bog'liq (kunduzi, kechqurun, quyoshli kunda, bulutli ob-havoda) holda o'zgaradi. Masalan, kechqurun quyosh botish vaqtida qayin tanasi zarg'aldoq qizil tusda ko'rinadi. Shunday bo'lsa ham tajribasiz rassom qayin tanasini oq rangda tasavvur etadi.

Manzarani rangli tasvirlash jarayonida narsalarning predmetlik ranglarini yoddan chiqarish ko'nikmasiga erishish (shaxsiy rangini), yorug'lik ta'siri va uzoqlashgandagi ranglarni sezish mahoratini rivojlantirish zarur. Ayniqsa, talimning boshlang'ich davrida plenerdagi rangtasvir bo'yicha vazifa va mashqlar huddi shunga bag'ishlangan bo'lishi kerak.

Manzara rangtasvirini boshlang'ich davr dasturini juda yahshi o'zlashtirish uchun quyidagi mavzulardagi vazifalarni bajarish kerak.

- 1) Plener ochiq havo sharoitida naturani yaxlit idrok etish va rangdorlik munosabatlari bilan ishlash usuli:
- 2) Asosiy rangdorlik munosabatlarini qabul qilish va tasvirlash:
- 3) Umumiy tus va rangdorlik holati.
- 4) Manzara ob'ektlarini kolorit yaxlitligi va yoritilish rangi:
- 5) Manzaraning mayda bo'laklarini tasviri:
- 6) Manzarada kenglik.

Har qanday tasvir mayda qismlardan emas, yahlitlikdan boshlanadi. Dastlab katta umumiy shakl topiladi, keyin esa mayda bo'laklari ishlanadi. Shu munosabat bilan tasvirlash jarayoni qoidasi mavjud: umumiydan-mayda bo'laklarga va yana umumlashtirishga. Manzara etyudini ishlash yahlit asosiy munosabatlarni qurishdan manzaraning asosiy obektlari (osmon, er, suv, old, o'rta va olisdagi ko'rinishlari bilan) orasidagi rang farqlaridan boshlanadi.

Manzaraning obektlaridagi asosiy munosabatlarni to'g'ri olinishi keyingi rang qurilishi, mayda bo'laklarni tasvirlashda ishni osonlashtiradi. Agarda asosiy rang munosabatlari noto'g'ri topilgan bo'lsa, reflekslar va ranglardagi nozik farqlar,

mayda qismlarni qanchalik sinchiklab (astoydil) bajarilmasin, mazmunli tasvir hosil bo'lmaydi.

Plenerda boshlang'ich ishlar jarayonida kichik etyudlar (15x10sm) bajarish zarur. Qo'yilmadagi keskin kontrastlar (tusli va rangdorlik) ko'rish taassurotlari bo'yicha taqqoslanadi. Birinchi navbatda old ko'rinish munosabatlari olisdagiga nisbatan aniqlashtiriladi. Qoida bo'yicha kichik o'lchamdagi etyudlarda maydalangan qismlarni idrok etish mumkin emas. Yosh rassom naturani aynan «ko'chirmasdan», balki yaxlit rang munosabatlarida tasvirlaydi.

Tus va rang munosabatlari metodi bilan etyudni bajarish aslida naturadagi och-to'qlik, intensiv va to'q rang dog'larni aniqlashdan boshlanadi. Ular oraliqdagi tus va rang dog'larini kuchi jixatdan taqqoslanadi. Manzarada, masalan, quyosh nuri bilan yoritilgan yashil yalanglik eng yorug' va rang bo'yicha yoriin bo'lishi, to'q tusda esa old ko'rinish.

Manzaraning umumiy rang munosabatlarini topish maqsadida talaba vazifani etarli darajada savodli uddalay olmasa qisqa vaqtli etyudlarni ko'p marta takrorlash zarur. Dastlab tasvirlash uchun uncha murakkab bo'lmagan yopiq kenglikli syujetlar (masalan, qisman hovlili uyni va h.k.), obektlar bo'lib hizmat qilishi mumkin. Keyin vazifani biroz murakkablashtirib, bir nechta ko'rinishga (old, o'rta va uzoq) ega bo'lgan ochiq kenglikdagi manzarani tanlash zarur. Bu etyudlarda esa e'tiborni havoiiy perspektivaga, osmon rangi, manzaraning barcha ob'ektlarini nozik farqlari bo'yicha och-to'qligi va to'yingan ranglarining o'zgarishlariga qaratish kerak. Ularni baravar idrok qilishda manzarani barcha ko'rinishlarini taqqoslash yo'li bilan sezish mumkin. Masalan, old ko'rinishdagi daryo qirg'og'ini ikkinchi va yiroqdagi ko'rinishlari bilan bir vaqt o'zida osmonning suvdagi aksi bilan ham qiyoslanadi. Etyudning rangdor munosabatlari yaxlit belgilanmaguncha uning bir qismini tugatish mumkin emas. Har bir etyud 30 daqiqadan 1 soatgacha davom etadi.

## 2.4.Tasviriy san'atfanidan 1 soatlikdarsishlanmasi

**Sinf 6. MAVZU: «Erkin mavzuda syujetli kompozitsiya ishlash»**

**Dars maqsadi:**

**D T S talabi:** Oquvchilarning erkin mavzuga oid kompozitsiya ishlashga o'rgatish, unga monand tasviriy vositalar tanlay olish malakalarini anglash.

**Ta'limiy maqsad:** Erkin mavzuga monand tasviriy kompozitsiya yarata olish, olish, unda mavzu va tavsir mushta rakligini ta'minlovchi elementlar qollay olish, mavzuga tasviriy talqini ijodiy izlanishlar vositasida amalgam oshira bilishni orgatish.

**Tarbiyaviy maqsad:** O'quvchilarga tabiatni asrash va uni ardoqlash shunchalarini berish, ma'naviy sog'lom, estetik jihatdan yetuk, go'zallikka bo'lgan qiziqish larini oshirish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** O'quvchilarning badiiy-estetik tarbiyasi, badiiy madaniyatini shakilantirish va rivojlantirish.

**Dars uslubi:** Interfaol

**Dars jihozi:** a.) ko'rgazmalar proeksion ko'rgazmalar, test savollari, didaktik materalar.

b) qora qalam, o'chirg'ich, akvarel bo'yog'i va mo'yqalam.

**Darsning borishi.**

1. Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan salomlashiladi va yakunlar so'raladi.

Oquvchilar uch guruhga bo'lib olinadi va nomlanadi.

1- guruh A. Temir

2- guruh A. Navoiy

3-guruh K. Behzod

Guruhlar dars davomida baholanib dars songida qol olib bolgan guruh rag'batlantiriladi.

## 2. O'tilgan mavzuni so'rash:

O'quvchilarni shu vazifalarini qanday bajarganligini o'qituvchi ko'rib chiqib, vazifani yahshi bajarganlarini o'qituvchi rag'batlantiradi va baholaydi.

## 3. Yangi mavzu bayoni.


O'quvchilarga yangi mavzu e'lon qilinadi. Erkin mavzuda syujetli kompozitsiya ishlash usulari o'quvchilarga tushuntirib boriladi va ishlash texnologiyalarini o'rgatish.

### Reja


1. Syujetli kompozitsiya nima?
2. Perespeksiya haqida tushuncha berish?
3. Eskiz haqida tushuncha berish?

A) **Nazariy qism:** Tasviriy san'at voqelikni badiiy obroзда tasvirlash yani atrofimizda bo'layotgan barcha vaqtlar jarayonini aks etiradi. Hurmatli o'quvchilar yurtimiz mustaqilikka erishganidan buyon juda katta o'zgarishlar bo'ladi va bo'lmoqda. Shahar va qishoqlar obodonlashtirilib, milliy qadireatimiz tiklanmoqda. Bu to'g'rida yurtboshimiz Islom Abdug'anivich Karimov olib borayotgan siyosat taxsimga sozovardir. Yurtimiz yashab o'tgan allomalar, buyuk ajdodlarimiz qadamjolari taminlanib, sayqalanib qanchadan-qancha binolar o'quvchilar uchun zamonaviy talabga javob beradigan maktablar , kollejlarda qad ko'tarib yurtimiz ko'rkiga ko'rik qo'shmoqda. O'quvchilarini ilmi bo'lishga shon-sharaflar dunyo ishlohatlariga mos mavzuda rivojlantirish.

Endi bevosita darsimoz mavzusiga qarasak, kompozitsiya so'zi "kimnostika" so'zidan olingan bo'lib to'g'ish, tuzish, bir-birida ma'lum tartibda joylashtirish, solishtirish va birlashtirishni anglash. Kompozitsiya tashviriyy san'at sohasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, loylashgan ob'ektni manzarani noturani, norfufni va hakazolarni ma'lum olchamlanadi qog'ozga, korfonga va boshqalarga to'g'ri, chiroyli joylashtirishdan, yani "komponovka" qilish. Syujetli kompozitsiya tushushda asosiy element odatda o'rtada joylashtiriladi. Qolgan yordamchi elementlar asosiy elementlar atrofiga joylashtiriladi. Agar kompozitsiyada asosiy element olib tashlangan, kompozitsiya o'z mazmunini yo'qotadi.



Pablo Pikasso "Shar ustidagi qiz"



Anri Matiss "Qizil baliqlar"

**Perespeksiva-** qisqarish demakdir, havo perespeksiyasi, tabiatdagi har-hil perepeksivalar, mosolon, yo'l, yo'llarning olis ufqda qisqarishni va hakazolarni. Tasvirlanayotgan buyumlar, ushbu buyumning qaysi tamonidan ko'rinishidan hazar uzoqdan, yaqindan, yugoridan, pastdan, to'g'ridan yoki chokkadan chizuvchiga o'zgarib ko'rinadi. Perespeksiya qonunlarini mukammal o'zgarib olib, har qanday

buyumning ko'rinish va ko'rinmas ma'nolarini to'g'ri tasvirlash mumkun. Perespektiva qonunlarning asosiy hususiyatlari shundaki, buyumlarning qanday kattalikda bo'lmasdan chizuvchidan sori va tekislikda qanday joylashganiga qarab perespeksiva qisqaradi.

Syujetli mavzuda chizma tasvirining ahamiyanti katta, ya'ni suyetli manzara chizishdan avval bir qancha kichik hajmdagi eskizlar chizib olinadi va ulardan mukammalini tanlab olinadi. Syujetli mavzuda rasm chizishda simmetriya tasvir o'lchamlariga alohida e'tibor berish kerak. Cimmetriya- tasvir o'lchamlarini ikki tamonni bir-biriga mosligini bildiradi. Eskiz deb- koz bilan chamlab chizilgan tasvirga aytiladi

#### **VI. Tasvirini qog'ozda joylashtirish**

(komponovka)

2. Qalamda xomoki ishlash
3. Tasvirini qalamida yakunlash
4. Bo'yoqlar bilan ishlov berish.

#### **IV. Mustahkamlash**

Test sovellari berish orqali o'quvchilar bilimi mustahkamlanadi.

#### **V. Rag'batlantirish.**

Dars davomida faol ishtirok etgan o'quvchilarning ballari e'lon qilinadi.

**VI. Uyga vazifa:** Erkin mavzuda tanlangan cujetli kompozitsiyalarini chizishni yakunlab kelish.



## Xulosa

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, rangtasvir va rang texnologiyalarini o'zlashtirishda biz avvalo kuzatuvchan va rangni xis qila oladigan darajaga erishish uchun harakat qilishimiz zarur bo'ladi. Ma'lumki, tasviriy san'atning barcha turlarida rang muhim rol o'ynaydi. Rang gammasi deganda tasvirlarni ishlash jarayonida qo'llanadigan tus va ranglarning o'zaro muvofiq kelishini tushinamiz. Bu holatni quyidagi jonli misol bilan izohlasak o'rinlidir, masalan, musiqa san'atidagi ovozlarda ma'lum notalar yordamida belgilanadi va foydalaniladi. Ular o'z holicha alohida-alohida bir-biri bilan uyg'unlashtirilmay chalinsa manosiz uzuq-yuluq ovozlardan iborat bo'lib qoladi. Agar ma'lum bandlikda va tartibda uyg'unlashtirib chalinsa, yoqimli bo'lib eshitiladi. Ma'noli tasavvurlar zavq berish qudratiga ega bo'ladi. Ularning sifati ovozlari o'rtasidagi vaqt masofasi, ovozlarning yo'g'on-ingichkaligiga ham bog'liq. Rangtasvirda ishlash jarayonida ham xuddi keltirgan misolimiz kabidir, ya'ni har bir rang va tusning o'z yorqinligi va to'q – ochligi mavjud. Ularni nechog'lik bir-biriga mosini topib, o'zaro muvofiq tarzda qo'llasak shunchalik tasvir sifatida aksini beradi, ma'no tashish quvvatiga ega bo'ladi. Agar bo'yoqlarni tasvir ob'ektiga zid holda birini juda yorqin, boshqasini nursiz qilib o'zaro bog'liqligiga moslamay ishlatsak, rangtasvir ma'nosiz ma'nosiz chiqib qoladi. Ranglarning yorqinlik kuchi va to'q-ochligi xuddi tabiatdagidek qilib olish va tasvirlashda qo'llash juda qiyin. Shu sababdan ham ular ochroq yoki to'qroq gammalarda tasvir ob'ektlariga mos tarzda, ma'lum nisbatlarda qilib olinadi. Mo'ljalidagi olingan gammaga moslab tasvirning eng to'q va eng och qismlari darajasi belgilab olinadi. Shunda ishlangan tasvirlar yaxlitlik, qiziqarlilik kasb etadi, ta'sirchan chiqadi. Har bir narsa va xodisa tasvir etilar ekan, uni xuddi aslidagidek qilib aks ettirish mumkin emas. Buni ko'pchilik san'at nazariyotchilari va rassomlar, amaliyotchilar doimo ta'kidlab keladilar. Zero, tabiatni tasvirlash undan olingan tasavvurning qay darajadiligiga bog'liq, muhimi tabiat ko'rinishi realligi tasavvurini obrazli tarzda ifoda etsa ishonarli bo'lsa shuning o'zi kifoya, o'zbek rassomlari ichida ham rangga juda e'tiborli munosabatda bo'ladigan, uning go'zal uyg'unligini ifodalab bera oladiganlari ko'p. Bunday usta, mahorat egalari mo'yqalam sohiblaridan M.Nabiev,

R.Ahmedov, R.Choriev, A.Abdullaev, B.Burmakin, B.Boboev, J.Umarbekov, A.Mirzaev, B.Jalolov, Akmal Nur, A.Ikromjonov, M.Toshmurodov, A.Nuriddinov, O.Qozoqov va boshqalarning nomlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Ularning ko‘plab ajoyib asarlari fikrimizni tasdiqlab turibdi. Biz ham kelajakda ta’lim olish jarayonida va undan amaliy faoliyatimiz davrida ham o‘z ustimizda ishlab tasviriy san’atni o‘quvchilarga etarli darajada o‘qita oladigan, shu soha bo‘yisha bilimlarni aniq etkazi bera oladigan pedagog bo‘lish uchun doimo intilib, harakat qilib boramiz. Har bir dars tasviriy san’atda ijodiy hisoblanadi. O‘qituvchi mavzu to‘g‘risida to‘g‘ri ma’lumot bergach o‘quvchilarning fikrlashi va tasvirlanishini nazorat qilishi lozim bo‘ladi. Chunki mavzular bir-biriga bog‘lanib, bir-birini to‘ldirib borishi nazarda tutilgan.

## ILOVALAR



**S.Abdullayev. Mezbon**





**Z.Faxriddinov. Sarbadorlar.**



Z.Inomov. Yig'im payti.





O.Tatevosyan. Qariyalar.






R.Ahmedov. Qo'shiq.



N.Kashina. Kuz ne'matlari.





I. Bahromov. Tandır qoshida.




J.Umarbekov. Olis bolalik.






**P.Benkov. Paxta chopigi.**



R.Viko. D.Boboyev portreti.






T.Mirjalilov. Dypyi sotuvchi ayol.



Sh.Abdurashidov. Yoshlik.





**G. Ulko. Yo'lda.**




R.Ahmedov. She'rlar.





B.Salomov. Tungi suhbat.





X.Rahmonov. Bahor.




M. Sodiqov. «So'qoq qizlari». Akvarel.





M. Sodiqov. «Xouz». Akvarel.



S. Gerasimov. «Kislovodsk». Mato moybo'yoq.















## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. 1999 yil.
2. Barkamol avlod orzusi. T. 1999 yil.
3. Abdullayev S.S. “Qadimgi O‘rta Osiyo va O‘zbekistonda Tasviriy san‘at” Toshkent 2014yil
4. B.Oripov Tasviriy san‘atni o‘qitish metodikasi. N. 2007 yil.
5. B.N.Oripov. Tasviriy san‘atni o‘qitish uslubiyoti. N. 2001 y. (o‘quv qo‘llanma).
6. B.Oripov. Tasviriy san‘at ta‘limida didaktika. N. 2008 yil
7. B.N.Oripov, B.B.Oripov. Tasviriy san‘atni o‘qitish metodikasi. (dastur). N. 2001 y.
8. Egamov A. Kompozitsiya asoslari. T.: San‘at, 2005.
9. R.Xasanov. Maktabda tasviriy san‘atni o‘qitish metodikasi. T. 2005 yil.
10. Samadov O.N. “Tasviriy san‘atning umumiy tarixi” 2013 yil
11. R.Hasanov. S.Beysenov. O‘qituvchilarni tasviriy san‘atdan bilim va malakalarini o‘zlashtirishni nazorati. T. 2008 yil.
12. R.Hasanov, B.Oripov. Tasviriy san‘at. (1-7 sinflari tasviriy san‘at va badiiy mexnat o‘quv materiallarini rejalashtirish) N. 2000 y
13. R.Hasanov, B.Oripov. Tasviriy san‘at. (1-7 sinflari tasviriy san‘at va badiiy mexnat o‘quv materiallarini rejalashtirish) N. 2000 y
14. Umumiy o‘rta ta‘limning Davlat ta‘limi standarti va o‘quv dasturi. Maxsus 6 - son. Tasviriy san‘at. (86 - 167 bet).
15. Kuzin V.S. Nabroski i zarisovki. M., 1970.
16. Shamsiddin Dunasariy. Odamnibilishilmi. Toshkent: «Yozuvchi», 1994. 12–13-b.

## **Elektron manbalar.**

1. [www.google.uz](http://www.google.uz)

2. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

3. [Ziyonet.uz](http://Ziyonet.uz)

4. [Kutubxona.uz](http://Kutubxona.uz)

